

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKULTETI
GEOGRAFIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Tabiashunoslik va geografiya fakulteti dekani

_____ dots. G'.Qodirov

“ _____ ” _____ 2012 y

5140500 - Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr
darajasini olish uchun yozilgan

**“HINDISTONGA DENGIZ YO‘LINING OCHILISHI VA UNING
GEOGRAFIK AHAMIYATI”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Do‘stbekova Yu.

Ilmiy rahbar: K. o‘qituvchi G‘apparov A.

BMI Geografiya va uni o‘qitish metodikasi

kafedra yig‘ilishining _____ 2012 y.

№__ sonli qarori bilan himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: g.f.n. Q.Hakimov

JIZZAX - 2012

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3-4
I Bob	Buyuk geografik kashfiyotlarning geografik ahamiyati...	5-23
1.1	Buyuk geografik kashfiyotlarga qadar dunyoning geografik o'rganilishi.....	5-10
1 2.	Buyuk geografik kashfiyotlar davri bosqichlari va ularda amalga oshirilgan ishlar.....	11-23
II Bob	Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi.....	24-46
2.1	Hindistonga dengiz yo'lini ochish maqsadida amalga oshirilgan sayohatlar.....	24-31
2.2.	Vasko da Gama va uning sayohati.....	32-39
2. 3.	Hindistonga qilingan sayohatlar natijasida orttirilgan umumiy geografik bilimlar.....	40-46
III. Bob.	Hindistonga dengiz yo'li ochilishining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati.....	47-51
3. 1.	Hindistonga dengiz yo'li ochilishining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati va oqibatlari.....	47-51
	Xulosa.....	52-53
	Adabiyotlar.....	54-55

KIRISH

Geografiya fanining tarixiy rivojlanishi kishilik jamiyati taraqqiyotidagi turli voqea – hodisalar bilan bog'liq kechgan. Dunyoning umumiy tasvirini to'liq o'rganishga bo'lgan intilish insoniyatning azaliy maqsadi bo'lgan. Ayni vaqtda turli qit'alarining o'ziga xos tabiiy sharoiti va resurslar salohiyati ularning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini turli darajada bo'lishini belgilab beradi. Mana shu holatning o'zi mamlakatlar va mintaqalar o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishini ham belgilaydi. SHunady munosabatlar xalqlar va davlatlar manfaati uchun amalga oshirilgan ishlarda o'z aksini topadi. Buyuk geogarfik kashfiyotlar insoniyat O'rta Asrlarda erishgan ilmiy-texnik yutuqlar hosilasi bo'lib, ularning amalga oshishidan asosiy ko'zlangan maqsad Yevropa davlatlarining Hindistonga dengiz yo'lidan borishga intilishi hisoblanadi. Binobarin Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi Buyuk geografik kashfiyotlar ichida eng muhim hodisadir. Bitiruv malakaviy ishida bu hodisaning mohiyati, geografik ahamiyati va amalga oshish jarayoni, shuningdek iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy oqibatlarini ochib berish, tahlil qilish nazarda tutiladi. Bu ishni bajarishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi:

- ✚ Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi tafsilotlarini geografik tavsiflash tahlil qilish;
- ✚ Bu kashfiyotning geografik bilimlarni oshirishdag o'rni va ahamiyatini o'rganish;
- ✚ Kashfiyotning geografik, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy natija va oqibatlarini tahlil qilish.

Ko'zlangan maqsadga erishi uchun BMIni bajarish jarayonida quyidagi vazifalar bajariladi;

- ❖ Buyuk geografik kashfiyotlar davrigacha bo'lgan geografik bilimlar tahlil qilinadi;
- ❖ Buyuk geografik kashfiyotlar davri haqida umumiy ma'lumotlar beriladi;
- ❖ Hindistonga dengiz yo'lining ochilishidan ko'zlangan maqsad, zaruriyat va tayyorgarlik holati tahlil qilinadi;
- ❖ Kashfiyotning amalga oshish jarayoni batafsil yoritiladi;
- ❖ Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi natijasida to'plangan geografik bilimlar va natijalar qiyosiy tahlil qilinadi;
- ❖ Kashfiyotning geografik ahamiyati bilan birga, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy oqibatlari haqida xulosa qilinadi.

BMIning amaliy ahamiyati shundaki, ulkan geografik ahamiyatga ega bo'lgan voqea-hodisalarga izchillik va batafsil yondashiladi, tafsilotlari o'rganiladi, qiyoslanadi va baho beriladi. Ilmiy jihatdan ochib berilmagan va o'rganilmagan tomonlari geografiya ta'limiga tatbiq etilib, tinglovchilarning geografik kashfiyotlar haqida yangicha tasavvur hosil qilishlariga yordam beradi.

Ishni bajarishda geografik tavsif, tasvir, qiyoslash, tarixiy, statistik tahlil usullaridan foydalanilib, suratlar, jadvallar va xaritalar yordamida ko'rsatilishi ko'zda tutiladi.

I BOB BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLARNING GEOGRAFIK AHAMIYATI.

1.1 BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR DUNYONING GEOGRAFIK O'RGANILISHI.

Eramizning 1-ming yilligi o'rtalariga kelib Yevropada xristianlik qaror topdi. Xristian dini aqidalari dunyo haqidagi tasavvurlarni Tavrotga mos ravishda shakllantirdi. Monastirlarda tayyorlangan kartalarda Yer disk shaklida tasvirlanib, dunyo markazida Quddus (Ierusalim) shahri, yuqorida Osiyo, pastda Yevropa va Afrika joylashtirilgan. Yevropa va Osiyoni Don daryosi, Osiyo va Afrikani Nil daryosi, Afrika va Yevropani O'rta Yer dengizi ajratib turadi, ularni esa har tomondan Ekvatorial va Meridinal deb ataluvchi ikki qismga ajralgan Dunyo okeani o'rab olgan. O'sha davrda tayyorlangan bunday kartalardan 600 tasi saqlanib qolgan. Ba'zi kartalarda antik davrga xos bo'lgan, masalan Yerni iqlim zonalariga bo'linishi kabi ma'lumotlar ko'rinib qoladi.

Yevropa o'rta asrlarda qalin o'rmonlar bilan qoplangan, katta yo'llar deyarli yo'q edi. Qadimdan qolgan qo'lyozmalar qirol saroylarida va monastirlarda saqlanar, ulardagi bilimlarni hech kim o'rganmas edi, chunki lotin tilini ruhoniylardan boshqa deyarli hech kim bilmagan. Bilimsizlik va dunyodan ajralib qolish boshqa joylar haqida afsonaviy tasavvurlarning shakllanishiga olib kelgan va uzoq vaqt saqlanib qolgan.

Lekin aniq geografik bilimlar zarur bo'lgan kasb egalari ham mavjud edi. Bular savdogarlar va dengiz qaroqchilaridir. Yevropa tarixining kattagina davri normannlarning (vikinglar) SHotlandiyadan to Sitsiliyaga qadar qirg'oqlarga qilgan bosqinlari bilan belgilanadi. Vikinglar IX-XI asrlarda eng

uzoq dengiz safarlarini amalga oshirganlar. Islandiyaga borib oʻrnashganlar, 1000-yilda Grenlandiya va SHimoliy Amerika etib borib, oʻz qoʻnalgʻalarini bunyod qilganlar. Bunday sayohatlar haqida dostonlar bitilgan boʻlib, ularda tasvirlangan joylar asliga toʻgʻri keladi.

Yevropalik savdogarlarning geografik bilimlari asosan dengiz yoʻllari haqida boʻlib, Oʻrta Yer, Qora va Boltiq dengizi kartalari tuzilgan.

XI asrda boshlangan salib yurishlari Yevropaliklarning dunyoqarashini oʻzgartirib yubordi. Ular vizantiyaliklar va arablar orqali antik davr fani va taʼlimotlari bilan tanishdilar, diniy aqidalarni geografiya fani bilan moslashtirdilar. Yerning sharsimonligi haqidagi fikr shakkoklik boʻlmay qoldi. Yevropaliklar uchun Ptolomey geografiyasi eng ishonarli manba edi.

Antik davr fani Vizantiyada birmuncha saqlanib qolgan edi. Vizantiya olimlarining asosiy bahs mavzusi Yerning tayanchi boʻlib, bu haqda etti ustun, suv va havodagi muallaqlik holati kabi fikrlar asosiy oʻrin tutadi. Ular uchun birinchi raqamli geograf Strabon boʻlgan. SHuning uchun baʼzi hollarda bevosita tajribaviy xulosalardan koʻra uning gʻayritabiiy fikrlari maʼqul koʻrilgan.

Vizantiya imperatorlari geografik bilimlardan aniq maqsad yoʻlida foydalanganlar. Binobarin, nafaqat imperiya hududi balki, qoʻshni davlatlar haqida toʻliq geografik bilimlarni toʻplaganlar. X asrda Vizantiyaliklar butun Yevropa, Osiyoning Arabiston va Kavkaz, SHimoliy Afrika hududlarini bilar edilar. SHu bilan birga olis mamlakatlar haqida doimiy maʼlumotlar yigʻib borilgan.

Yevropaliklar oʻz yurtlariga arablar orqali yetib kelayotgan ajoyibotlarning vatani haqida bilishni xohlashar edi. CHunki ular olis yurtlar haqida hech qanday tasavvurga ega emas edilar. SHuning uchun ham ilk

O'rta asrlarni qorong'ilik asrlari deb atashadi va bu davrda dunyoda hech qanday ma'rifat bo'lmagan deb ta'kidlashadi. Ammo Osiyoda shakllangan va rivojlangan davlatlar, Xitoy, Oltin O'rda, Arab xalifaligi, Usmoniylar imperiyasi, Temur davlati kabi davlatlarda ilm-fan gullab yashnagan va dunyo fanining rivojiga beqiyos hissa qo'shilgan. Ushbu davlatlar olib borgan istilochilik urushlar bu davlatlar fuqarolarining dunyoviy tasavvurlarini ham juda kengaytirib yuborgan. Masalan mo'g'ullar g'arbda ulkan ummon borligini bilganlar va ungacha bo'lgan Yerni bosib olishni orzu qilganlar. Aytish mumkinki, bu xalqlarning o'sha davrdagi engilmasligi ularning dunyoqarashlari bilan bog'liqdir.

Ayni urushlar Yevropaliklarning ham boshqa xalqlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirdi va ularda olis o'lkalarni o'rganish ishtiyoqini uyg'otdi. Ko'plab savdogarlar Osiyo davlatlari bilan bevosita borib tanishdilar. SHunday sayohatlardan eng ahamiyatlisi Marko Polo (1254-1324) tomonidan amalga oshirilgan. U o'z otasi va amakisi bilan 1271 yilda yo'lga chiqib, Old Osiyo, Eron, O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo cho'llari orqali Xitoyga etib borgan. U Yerdagi CHingizxonning nevarasi Xubilayxon saroyida 17 yil xizmat qilgan. Turli lavozimlarda ishlab Xitoyning ko'plab shaharlarini borib ko'rdi, xitoyliklar va boshqa xalqlarning turmush tarzini o'rgandi. Qaytishni dengiz orqali amalga oshirmoqchi bo'ldi va 1292 yilda hozirgi Guanchjou portidan yo'lga chiqib Osiyoning sharqiy qirg'oqlari, Hindixitoy yarim oroli va SHri Lankani aylanib o'tib, Hurmuz portiga etib keldi. 1295 yilda Venetsiyaga etib kelgan Marko Polo Yevropaliklarga olis o'lkalar haqida ishonarli tasavvurlarni olib keldi. Keyinchalik Genualiklarga asir tushgan Marko Polo qamoqda yozuvchi Rustichiano bilan tanishadi va u Marko Poloning sarguzashtlarini qiziqarli tarzda qog'ozga tushiradi. Kitob ko'p tillarga tarjima qilinib, keng tarqaladi. Kitobga nom qo'yilmagan

shuning uchun “Marko Poloning kitobi” deb atashgan. Marko Poloning vafotidan keyin ham uning kitobi Yevropaliklar uchun asosiy manba bo‘lib qolaverdi. 1375 yilda kitobga asoslanib SHarqiy Osiyo va Hindiston aniqroq tasvirlangan dunyo atlasini tuzildi. Kosmograf Paolo Toskanelli Xristofor Kolumbga ushbu kitobdan foydalanishni maslahat bergan va uning okeanni kesib o‘tib Osiyoning sharqiy qirg‘oqlariga etib borishiga ishongan.

O‘rta asrlar SHarqida turli fanlar sohalarida buyuk kashfiyotlar qilingani ma’lum. Ulug‘bekning astronomiya sohasida qilgan ishlarida geografik bilimlarning ham aks etishi diqqatga sazovordir. Uning “Zij-i jadidi Ko‘ragoniy” asarida turli shaharlarning koordinatlari berilgan. Prof. H. Hasanov bu shaharlar sonini 570 ta deb ko‘rsatadi. SHuningdek prof. H. Hasanov Ulug‘bekning ishlarini Beruniyniki bilan solishtiradi. Garchi Ulug‘bekning jadvalida turli joylarning ta’rifi Beruniyniki kabi to‘liq berilmagan bo‘lsada, uning ishlarida yangi joylar va atamalar borligini va koordinatlar aniq ekanligini ta’kidlaydi. Ulug‘bek bosh meridianni Xolidot orollaridan boshlagan. Umuman bosh meridian masalasiga turli olimlar turlicha yondashganlar. Hatto 19-asrda ham bosh meridian turli mamlakatlarda turli joylardan o‘tkazilgan. Beruniy bosh meridianni hozirgi Kanar orollaridan boshlaydi. Ptolomeyda esa bu meridian YAshil burun orollaridan boshlanadi. Xolidot orollarining hozirda nima deb atalishi muammolidir. Hofizi Abru bu orollarning suv ostiga cho‘kib ketganligini yozgan. Ozarbayjon astronomi prof. Mamedbeyli Nosiriddin Tusiyning jadvalini o‘rganib bu orollarni Grinвичdan $34-35^0$ g‘arbda, ya’ni Janubiy Amerikaning sharqiy qirg‘oqlariga yaqin joyda deb hisoblaydi. Lekin bu holda g‘arbdagi quruqlik o‘sha davrlarda hammaga ma’lum bo‘lgan bo‘lishi kerak edi.

Umuman aniqroq xulosalarga tayanib bu orollarni Azor va Kanar orollari oralig'ida deb hisoblash mumkin.

XV asrda O'rta Osiyo hududidagi davlatlarda ijtimoiy va madaniy yuksalish kuzatilgan. Bu davrda turli sohalar bilan birgalikda geografik bilimlar ham boyib bordi. Ushbu davrda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Hofizi Abru tarixiy geografik asar yozgan.
2. G'iyosiddin Naqqosh Xitoyga safar qildi.
3. Abdurazzoq Samarqandiy Hindistonga elchi bo'lib bordi.
4. Ulug'bek rasadxonasida zij tuzildi.
5. Ali Qushchi astronomik va geografik tadqiqotlar olib bordi.

Ta'kidlash kerakki, SHarq sayyohlari olis yurtlarga asosan elchilik yoki savdogarlik ishlari bilan borganlari uchun, ularning yozuvlar aniq geografik bilimlardan ko'ra tasvir va tarixiy etnografik ahamiyatga egadir.

Abdurazzoq Samarqandiy 1441 yilda Hindistonga elchi bo'lib borgan va bu yerdagi shaharlarga tavsif beruvchi kitob yozgan. Kitobda ko'plab shahar va o'lkalar tavsifi rivoyat va she'riy ifodalar bilan berilgan. U Xuroson, Hindiston, Arabiston dengizi, sharqiy Afrika, fors qo'ltig'i hududlari haqida ma'lumotlar yozib qoldirgan.

O'rta asrlarda amalga oshirilgan yana bir ajoyib sayohat rus savdogari Afanasiy Nikitinning Hindistonga safaridir.

U 1466 yilda Volga orqali Kaspiyga tushib, Eronga etib boradi. Eronda savdo bilan shug'ullanib, Hindiston haqida eshitadi va Arabiston dengizi orqali Hindistonga o'tadi. Ishlari yurishmagani uchun mamlakat ichkarisiga yo'l oladi va 3 yil davomida shaharlarni kezadi. Qaytishda Arabiston dengizi

orqali Arabistonning janubi-sharqiy qirg'oqlariga etib boradi va Tabrizga yo'l oladi. Armaniston tog'ligidan o'tib Qora dengizga tushadi va 1472 yilda Qrimga etib oladi. U o'sha yili o'z shahri Tverga etolmay Smolensk shahrida kasallikdan vafot etadi. Afanasiy Nikitinning sayohati shunisi bilan ahamiyatliki, u ko'rgan va eshitgan narsalarini qoldirmay yozib borgan va boy ma'lumotlar to'plagan. Har bir mamlakat va shaharlar, turli xalqlarning turmush tarzi, xo'jaligi, madaniyati va hokazo ma'lumotlar aniq tasvirlangan va izohlangan. Undan "Uch dengiz osha sayohat" kitobi qolgan.

Bu sayohatlar va geografik bilimlar Buyuk geografik kashfiyotlar davrining va Yevropa Uyg'onish davrining boshlanishiga turtki bo'lib xizmat qildi.

1. 2. BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR DAVRI

KASHFIYOTLARINING UMUMIY TAVSIFI

Buyuk geografik kashfiyotlar davri deb XV asrning o'rtasi yoki oxiridan XVII asr o'rtalarigacha bo'lgan davrlar aytiladi. Buyuk deb atalishga loyiq geografik kashfiyotlar har doim ham bo'lgan, lekin hech qaysi davr Buyuk geografik kashfiyotlar davridagidek dunyo taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatadigan kashfiyotlarga boy bo'lmagan.

Buyuk geografik kashfiyotlarning birinchi bosqichida bu kashfiyotlarni amalga oshirish ma'lum tarixiy sabablarga ko'ra Ispaniya va Portugaliya zimmasiga to'g'ri keldi. Bir necha 10 yil davomida Pireney yarim orolidan chiqqan sayyohlar SHarq mamlakatlariga ikki tomonlama – Afrikaning janubiy chekkasidan aylanib o'tuvchi janubi-sharqiy va Janubiy Amerikaning janubiy chekkasidan aylanib o'tuvchi janubi-g'arbiy yo'lni ochdilar. G'arbiy yo'l izlab Amerika qit'asini kashf etdilar va o'zlashtira boshladilar.

XVI asr o'rtalariga kelib Pireney davlatlari ochilgan Yerlardagi boyliklardan qoniqib, yangi Yerlarni izlashdan voz kehdilar. O'sha davr hujjatlariga ko'ra Osiyoga boriladigan yo'llar shu ikki davlatga Rim papasining qarori – bullasi bilan tasdiqlangan edi, CHunonchi, 1481 yilda papa Sikst VI portugallarga Boxador burnidan janubga to hindlarga qadar bo'lgan hududni "Aeterni Regis" bullasi bilan taqdim etgan. Kolumbning Hindistonga etib borganligi haqidagi xabardan keyin portugallar Rim papasi huzurida da'vo ishini qo'zg'adilar. Natijada endi 1493 yilda papa Aleksandr VI yangi "Inter cetera" bullasini e'lon qildi. Bulladagi so'zlar geografik jihatdan mantiqsiz bo'lsada ispanlar va portugallarning kemalari suzadigan hududlar uchun demarkatsion chiziqni belgilab berdi, bu chiziq ta'xminan 38⁰ g'arbiy uzunlikdan o'tadi. Ushbu bulladagi geografik xatoliklarni,

masalan “meridiandan janubga tomon” kabi soʻzlarni tuzatish asnosida ispan va portugal hukumatlari oʻrtasida diplomatik aloqalar oʻrnatildi va 1494 yilda Tordesilʼyas shahridagi sulh bilan yakunlandi. Bu sulh natijalariga koʻra yangi demarkatsion chiziq oʻtkazilib, bu $46^{\circ} 30'$ gʻarbiy uzunlikdan oʻtadi. SHunday qilib, Atlantika okeanining sharqiy qismi va Afrika qirgʻoqlari, Hind okeani orqali Hindiston va Molukka orollarigacha boriladigan dengiz yoʻllari Portugaliyaga, Atlantika okeanining gʻarbiy qismi va Yangi dunyo qirgʻoqlari orqali Tinch okeani va undan Hindixitoy yarim orollarigacha boriladigan dengiz yoʻllari Ispaniyaga tegishli boʻldi. Shu bilan Buyuk geografik kashfiyotlar davrining birinchi bosqichi tugadi.

Bu davrning ikkinchi bosqichida Angliya va keyinroq Gollandiya ham Osiyoga etishga harakat qila boshladilar. Ular dengizlarda erkin suza boshlagan boʻlsalarda, Ispaniya va Portugaliya kemalari suzadigan yoʻllarda suza olmasdilar, shuning uchun ham Sharqqa yangi yoʻnalishlarni izlay boshladilar. Ular Osiyoga Amerika qitʼasining va Evrosiyaning shimoliy qirgʻoqlari orqali aylanib oʻtishni moʻljalladilar. Inglizlarning SHimoliy Amerikaga yoʻlini birinchi boʻlib, 1497 yida Jon Kabot ochdi. U Nʼyufaundlend oroli yaqinida materik qirgʻoqlarigacha etib brib janubi-gʻarbga tomon ancha suzdi, lekin boylik topa olmay bu hududlarni egallashdan voz kechdi. XVI asrning 20-yillarida shimoliy gʻarbiy yoʻlni ochish uchun portugal, ispan va frantsuz ekspeditsiyalari uyushtirildi. SHimoliy Amerika sharqiy qirgʻoqlarining Labrador yarim orolidan Floridagacha boʻlgan qismi oʻrganildi va kartaga tushirildi. 1534 – 36 yillarda frantsuz Jak Kartʼe Avliyo Lavrentiy daryosiga tushib Ottava daryosining yuqori oqimigacha suzib bordi, ostonalar tufayli toʻxtashga majbur boʻlgan sayyoh hindulardan uyoqda katta suv havzalari borligini eshitdi. SHu tariqa Buyuk koʻllar va Kanada oʻlkasi kashf etildi (“kanada”

hindular tilida qishloq ma'nosini beradi). 16-asrning so'nggi choragida shimoli-g'arbiy yo'lni qidirishga Angliya harakat qila boshladi. 1576-1578 yillarda Martin Frobisher Baffin Yerini kashf etdi. Genri Gudzon 1607 yilda shimoliy kengliklarning $80^{\circ} 23'$ gacha etdi, 1610 -11 yillarda Labrador yarim orolini aylanib o'tib, shu nomdagi qo'ltiqqa chiqdi va Tinch okeaniga etdim deb o'yladi. XVII asrning 10-30 yillarida Robert Baylot, Uil'yam Baffin, L'yuis Foks, Tomas Jeyms ekspeditsiyalari tomonidan Baffin dengizi qirg'oqlari, Gudzon qo'ltig'ining g'arbiy qismi, Foks havzasining janubiy qismlari o'rganildi va kartaga tushirildi. SHu bilan shimoliy yo'lni izlash bir qancha vaqt to'xtab qoldi. XVI asrning o'rtalarida Osiyoga shimoli-sharqiy yo'lni izlash boshlanib, Robert Chenslor Rossiyaning shimoliy qirg'oqlari orqali savdo aloqalarini o'rnatdi. Stiven Barrou Vaygach oroligacha, 1594-97 yillarda golland Villem Barents uch martalik urinishda YAngi Yer orollarigacha etib bordi va shu bilan bu yo'lni qidirish ham to'xtadi.

Buyuk geografik kashfiyotlar davrida barcha materiklarning konturlari, SHimoliy Amerikaning shimoliy va shimoli-g'arbiy qirg'oqlari, Avstraliyaning g'arbiy, shimoliy va janubiy qirg'oqlari aniqlandi, dengizlar o'rganildi. Faqat barcha materiklarning ichki hududlari qoldi.

Buyuk geografik kashfiyotlar davri turli fan va ishlab chiqarish sohalarining va kishilik jamiyatining ijtimoiy – siyosiy rivojlanishiga va dunyoqarashlarning o'zgarishiga olib keldi.

Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi, portugaliyaning dengiz davlatiga aylanishi bilan bog'liq bo'lib, dengizlarda hukmronlik qilish g'oyasi Dengizchi laqabli portugal shahzodasi Enrikega tegishli edi. SHahzoda Afrikaning janubiy qirg'oqlari orqali Hind okeaniga yo'l topish uchun bir qancha ekspeditsiyalarga homiylik qilgan. 1416 yildan 1460 yilgacha 10 lab ekspeditsiyalar Afrika qirg'oqlari bo'ylab janubga suzdilar. 1419 yilda

Mayeyra orollari kashf qilindi. Portugallar ochiq okeanga chiqishdan qoʻrqib qirgʻoqni koʻzdan qochirmagan holda suzishar va 26^o shimoliy kenglikdan oʻta olmas edilar. Afrikaning sahroga xos qirgʻoqlari hech tugamaydigandek tasavvur uygʻotardi. Oʻsha davrda Boxador burnidan oʻta olmagan portugallar shahzodaning majburlashlariga koʻra sayohatga otlanishar, muvaffaqiyatga ishonishmasdi. 1434 yilda Jil Eanish Boxador burnidan oʻtdi va Portugaliyaga qaytib keldi. Portugallar Afrika qirgʻoqlari boʻylab bosqinlar uyushtirib, 1441 yildan qora tanli qullar bilan savdo qilishni Yevropada rasm qildilar. Tez orada YAshil burun (Alʼmadi burni) kashf etildi. Alvize de Kodomosta YAshil burun orollarini kashf etdi. 1462 yilda Pedru di Sintra Sʼerra-Leonega etib bordi va Gvineya qoʻltigʻi qirgʻqlarini Afrikaning janubiy chekka qirgʻoqlari deb oʻyladi, holbuki maqsadgacha 8 ming km bor edi... Portugallarning toʻxtovsiz suzishlari natijasida Afrikaning qirgʻoq chiziqlari aniq boʻla boshladi. XV asr oxirida Dogu Kon Gvineya qoʻltigʻidan janubga 2500 km masofaga suzdi va Namibiya qirgʻoqlariga etdi. Aynan shu sayyoh qirgʻoqlarga tosh ustun belgilari – padranlarni oʻrnatishni odat qildi va bu usul keyingi sayyohlar uchun moʻljal boʻlib xizmat qildi.

Joan II davrida Bartolemeu Diash boshchiligidagi ekspeditsiya Afrikaning janubiy qirgʻoqlariga etib bordi va Hind okeaniga chiqdi. Ammo boʻronlar va qiyinchiliklar dengizchilarning orqaga qaytishiga sabab boʻldi.

Kolumb sayohatlari haqidagi xabarlar qirol Manuel I ni yangi ekspeditsiyalar tashkil qilishga shoshiltirdi va u Vasko da Gama boshchiligidagi ekspeditsiyani Hindistonga dengiz yoʻlini ochish uchun joʻnatdi. 1497 yil 8 iyulda “San-Gabriel”, “Berriu”, “San-Rafael” deb nomlangan 3 ta kema yoʻlga chiqdi. 4 oydan soʻng bu kemalar Afrika materigining janubiy qirgʻoqlarini aylanib oʻtib, sharqiy qirgʻoq boʻylab

shimolga suza boshladi. Vasko da Gama Afrikaning sharqiy qirg'oqlaridan yo'lboshchi yollashga harakat qildi, ammo bu suvlarda arablar xo'jayinlik qilardilar, shuning uchun ham portugallar bu Yerlarda dushmanlik kayfiyati bilan kutib olinardi. Vasko da Gama yo'lboshchisiz Somali qirg'oqlarigacha etib bordi va bu Yerda o'zlariga arab Ahmad ibn Majid ismli eng yaxshi lotsmanni yolladi. 1498 yil 24 aprelda portugallar shimoli-sharqqa burildilar va 23 kundan so'ng Hindistonning Kalikut portiga etib bordilar. Portugallar bu Yerda oldiniga yaxshi kutib olindi, ammo Vasko da Gamaning hindlarga past nazar bilan qarashi mahalliy hokimlar bilan urishib qolishiga sabab bo'ldi. Portugalar kelgan yo'llari orqali vatanlariga qaytib keldilar. SHunday qilib Hindistonga dengiz yo'li ochildi va 1869 yilda Suvaysh kanali qazilgunga qadar asosiy yo'l bo'lib qoldi. Bu yo'l Portugaliyaning o'sha davrdagi eng qudratli dengiz mamlakatiga aylanishiga sabab bo'ldi.

Vasko da Gama 1469 yilda tug'ilgan. Iste'dodli, qat'iy irodali va shafqatsiz bo'lgan bu odam buyuk geografik kashfiyotni amalga oshirdi. U Portugaliyaning Hind okeani va Hindistondagi Yerlariga vitse-qirol qilib tayinlandi. U 1524 yilda Hindistonda vafot etdi.

Buyuk geografik kashfiyotlar davrining eng buyuk kashfiyoti shubhasiz Amerikaning kashf etilishidir. Bu ishni amalga oshirgan odam Xristofor Kolumb 1451 yilda Genuyada tug'ilgan. Portugaliya qirg'oqlarida kema halokatidan omon qolgan Kolumb Portugaliyada qolib, dengizchilik ilmini o'rganadi. G'arb tomonga suzib Osiyo qirg'oqlariga etib borish fikri shu Yerda tug'iladi. 1485 yilda bu fikrni u qirolga taqdim etadi va rad javobini oladi. SHundan so'ng u Ispaniyaga borib o'z g'oyasini amalga oshirish uchun 7 yil ruxsat kutadi. Nihoyat qirol uni qabul qilib, u bilan shartnoma tuzadi. SHartnomaga ko'ra agar muvaffaqiyat qozonilsa, X. Kolumb yangi ochilgan Yerlarning hukmdori, vitse-qirol va admiral unvonini olishi, barcha

daromadlarning 1/10 ga egalik qilishi, ekspeditsiya xarajatlarining 1/8 qismini va savdo xarajatlarining ham 1/8 qismini to'lashi kerak bo'lar edi.

1492 yil 3 avgustda 2 ta karavella "Pint'ya" va "Nin'ya" hamda flagman "Santa-Mariya" og'ir kemalari Palos portidan yo'lga chiqdi va 3 kundan so'ng Kanar orollaridan o'tib ochiq okeanga chiqdi. Ta'kidlash lozimki, ekspeditsiyaning muvaffaqiyatiga deyarli hech kim ishonmagan, kemalar ekipajini to'plash ham juda qiyin kechgan. X. Kolumb bu ekspeditsiyada Toskanellining dunyo kartasini asos qilib olgan. Uningcha, qisqa muddatda YApon orollariga etib borilishi va janubga suzib Xitoy qirg'oqlari bo'ylab, Marko Poloning marshrutini takrorlagan holda Hindistonga yetib borilishi kerak bo'lgan.

Umuman X. Kolumbning birinchi suzishi omadli deb hisoblanadi. Yo'lovchi shamol 2 hafta davomida esib turgan, 16 sentyabrda ko'plab suv o'tlariga duch kelganlar va bu yana umid bag'ishlagan. Lekin bu Sargass dengizining boshlanishi bo'lib quruqlikka hali bor edi. Ekipaj orqaga qaytishni talab qila boshlagan. 7-oktyabrda suv qushlariga duch kelgan Kolumb dengizchilarni yana quruqlik yaqinligiga ishontiradi va qushlarga ergashib kemalarni janubi-g'arbga buradi. Bu ham omadli fikr edi, chunki avvalgi yo'nalishda ular Gol'fstrim oqimiga tushib qolgan bo'lar edilar. Nihoyat 1492 yil 12 oktyabrda quruqlik ko'rindi. Bu Bagam orollari edi. Osiyoning sharqiy qirg'oqlariga etganiga shubha qilmagan Kolumb janub tomonga YAponiyaning izla suzib ketdi. Kuba, Gaiti va yana bir qancha orollarni kashf etdi. Gaiti orolini Espan'ol deb atab, ispan koloniyasini barpo qildi. 1493 yilda Ispaniyaga qaytib kelgan Kolumbga Dengiz-okeanlar admirali degan unvon berildi va to'xtovsiz ikkinchi ekspeditsiyaga tayyorgarlik ko'rila boshlandi. Bu gal ishchilar, ruhoniylar, dehqonlar ham olib ketilishi kerak edi. 1493 yil 11 oktyabrda 17 ta kema yo'lga chiqdi. Bu

gal marshrut janubroqdan olindi va Antil orollariga etib kelindi. Kolumb katta Yerni izlab Karib havzasidagi orollarni kashf qildi va ispan koloniyasiga qo‘shib oldi. 1496 yilda Ispaniyaga qaytgan Kolumb oldiga aniq vazifa oltin va ziravorlar topish qo‘yildi. 3-ekspeditsiyada Trinidad orollari kashf qilindi. Ammo oltin va ziravor topilmaganligi uchun Kolumb hibsga olinib, Ispaniyaga jo‘natildi. 1500 yilning oxirida oqlandi va 1502 yilda 4-ekspeditsiyaga otlandi. Bu gal Markaziy Amerika qirg‘oqlariga etib borildi va 2 ming km masofadagi qirg‘oq chiziqlari aniqlandi. Lekin oltin kam topildi, ziravorlar esa umuman yo‘q edi. X. Kolumbning safarlari juda katta ahamiyatga ega bo‘lsada, ispan qirolligi uchun katta boylik olib kelmadi va Kolumb barcha unvonlaridan mahrum bo‘lib, 1506 yilda vafot etdi.

YAngi qit‘aning Amerigo Vespuchchi nomi bilan atalishini 1507 yilda nemis kosmografi Martin Val‘dzemyuller “Kosmografiyaga kirish” asarida taklif etgan. Bu bilan u X. Kolumbning xizmatlarini yo‘qqa chiqarmoqchi emas edi. Uning bu taklifi ital‘yan savdogari Emerigo Vespuchchining maktublariga asoslangan va u Kolumbni haqiqatdan ham Osiyo qirg‘oqlariga etib borgan deb hisoblagan. Vespuchchi esa o‘z maktublarini 1497-98 yillar sanasi bilan belgilagan. Lekin u aslida 1502 -03 yillarda suzgan bo‘lib, Janubiy Amerika materigining sharqiy qirg‘oqlari bo‘ylab Rio-de Janeyrogacha suzib borgan va Osiyo haqidagi tasavvurlar bilan solishtirib, bu hududlarning aslida yangi Yerlar ekanligini e‘tirof etgan va YAngi Dunyo deb atashni taklif etgan edi.

Ispanlar Osiyo qirg‘oqlariga, aynan Molukka yarim oroliga etishga harakat qilishardi, shuning uchun portugallarning yo‘lidan boshqa yo‘llarni to‘xtovsiz qidirishar edi. 1519 yil 20 sentyabrda “Trinidad”, “San-Antonio”, “Konsepsion”, “Viktoriya”, “Sant’yago” deb nomlangan 5 ta kemadan iborat ekspeditsiya Ispan qiroli xizmatidagi portugal dengizchisi Fernan de

Magellan boshchiligida g'arbiy yo'lni izlab suzib ketdi. Flotiliya Janubiy Amerika materigining sharqiy qirg'oqlari bo'ylab suzib, katta qiyinchiliklar bilan janubiy chekkasidan aylanib o'tdi va Tinch okeanga chiqdi. Tinch okeanini kesib o'tib, Marianna orollariga, undan Filippin orollariga etib bordi. Bu Yerdan 1521 yilda Magellan halok bo'ldi. Ekspeditsiyada ikki kema Xuan Sebast'yan El'kano boshchiligida Molukka arxipelagiga etib borib, ziravorlar sotib oldi va ikki yo'nalishda Ispaniyaga qaytishga qaror qilindi. "Trinidad" deb nomlangani Tinch okean orqali, Xuan S. Elkano boshchiligidagi "Viktoriya" kemasi hind okeani orqali qaytmoqchibo'ldi. Viktoriya portugal kemalaridan yashirinib, janubroqdan suzdi va Hind okeanini kesib o'tib, katta qiyinchiliklardan so'ng 1522 yil 8 sentyabrda Ispaniyaga etib keldi. "Trinidad" kemasi halokatga uchrab, undan 3 kishi omon qoldi va 5 yildan so'ng Ispaniyaga etib kelishdi. Magellan ekspeditsiyasining ahamiyati nihoyatda katta bo'ldi, Erning sharsimonligi amalda isbotlandi, Yangi qit'aning janubiy qirg'oqlari aniqlandi. Ekspeditsiya taqdiri uning ishtirokchisi ital'yan Antonio Pigafetta tomonidan "Dunyo bo'ylab birinchi sayohat" kitobida bayon qilingan. Lekin u na dengizchi, na geograf, hatto kuzatuvchan odam bo'lmaganligidan uning kitobi sayohat to'g'risida to'liq ta'surot bermaydi. Magellan va boshqa qatnashchilarning kundalikleri saqlanib qolmagan, faqat "Trinidad" kemasi kapitan yordamchisi Fransisko Al'boning jurnali bizgacha etib kelgan va ekspeditsiya to'g'risida to'liqroq ma'lumot olishga yordam bergan.

X. Kolumb, Vasko da Gama, F. Magellan sayohatlari va kashfiyotlari bilan Buyuk geografik kashfiyotlarning birinchi bosqichi tugadi. Endilikda yangi ochilayotgan Yerlarga yangi toifadagi kishilar, harbiylar, savdogarlar, ruhoniylar yo'l olishdi. Ularning maqsadlari yagona – oltin va hukmronlik edi deb yozadi zamondoshlar.

Ispanlar oldida ulkan hudud – Janubiy va Markaziy Amerika turar edi. Bu hududlarda yuksak tsivilizatsiyaga erishgan davlatlar Inklar, atsteklar va mayyalar davlatlari hukm surar edi. Ispanlar o‘zlarining XV-XVI asrlardagi yangi Yerlarni egallash harakatlarini konkista (isp. egallash) va harakat qatnashchilarini konkistadorlar deb atashgan. Konkistadorlarning oz sonli otryadlari yirik davlatlar va qabilalarni o‘zlariga bo‘ysundirdilar yoki Yer yuzasidan yo‘q qilib yubordilar.

XV-XVI asrlar chegarasida Kolumb va izdoshlari tomonidan YUkatan yarim orolidan janubiy tropikkacha bo‘lgan qirg‘oq chiziqlari aniqlangan edi. 1510 yilda Alonso de Oxedaning Uraba qo‘ltig‘ining sharqiy qirg‘og‘ida San-Sebast‘yan qal‘asini bunyod qilishi materik ichkarisiga kirib borishga imkon tug‘dirdi. Oxeda mahalliy hindularni qul qilmoqchi bo‘ldi, lekin qattiq qarshilikka duch keldi. Qal‘a yashash uchun noqulay joyga qurilgan edi. Alonso de Oxeda Espan‘olga (Gaiti) jo‘nab ketib, qaytmagach Vasko Nun‘es de Bal‘boa bu Yerni tashlab Oltin Kastil‘ya (Panama bo‘yni) ga ko‘chishni taklif qiladi. Hokimiyatni o‘z qo‘liga olgan bu odam hindu qabilalariga hujum qiladi. taslim bo‘lgan va oltinlarni topshirgan qabilalarni omon saqlab qoladi. SHunday qabilalardan u, ulkan tog‘lar ortidagi dengiz va Inklar haqida eshitadi. 1513 yilda u 190 ta ispan va 25 ta hindu hamrohligida yo‘lga chiqib, Tinch okean (Janubiy dengiz) qirg‘oqlarigacha etib boradi. Uning bu kashfiyoti ispanlarga yangi imkoniyatlar beradi. 1517 yilda Frantsisko Ernandes de Kordoba 3 ta kemada YUkatan yarim orolining shimoliy va g‘arbiy qirg‘oqlarini tekshirdi. Bu hududda topgan oltinlari ularga yana g‘ayrat bag‘ishladi. YAngi ekspeditsiyaga Xuan de Grixalva boshchilik qildi. Ular o‘zlari eshitgan oltinga boy Mexiko tomonga yaqinlashganlarida atsteklar hukmdori Motekoxsuma SHokoyotsin, yoki ispanchasiga Montesumaning elchilari peshvoz chiqib, ispanlarning buyumlarini oltinga

almashtirishadi. Ispanlar atsteklarning ulkan piramidalarini ilk bor ko‘rishdi. Ularning olib kelgan oltinlari Kuba gubernatori Diego de Velaskesni Ernan Kortes boshchiligida ekspeditsiya jo‘natishga qiziqtirdi. Kortes 1519 yilda ilk bor quruqlik sayohatini amalga oshirdi. 400 soldat, 15 otliq va 6 ta to‘p bilan buyuk imperiyani bo‘ysindirdi. U Tenochtitlanga kirib borib, Montesumani asir oldi, hindular qo‘zg‘olon ko‘targach, uni o‘ldirib ittifoqdosh hindular yordamida atsteklarni engdi.

1530 yilning 27 dekabrda Frantsisko Pizarro 180 kishi hamroqligida Panamadan janubga suzib, ekvator chizig‘ida qirg‘oqqa tushdi. Peruga uyushtirilgan bu safar birinchisi bo‘lmay, oldin ham Pizarro bir necha bor inklar davlatiga yaqin kelgan edi. ayni davrda inklar davlatida fuqarolar urushi tugab, kuchsizlanib qolgan edi. Pizarro inklar podshosini qo‘lga olib, bir uy to‘la oltinga almashtirishga rozi bo‘ldi. Ammo va‘dasida turmay uni o‘ldirdi va inklarni tor-mor qildi. Ispanlar 1532-33 yillar davomida Peru, Ekvador va Kolumbiya hududlarini egallab olishdi. Bundan keyingi yillar davomida to‘xtovsiz yurishlar qilib And tog‘larining janubiy hududlarini ham egalladilar. Materikda faqat araukanlar qabilasigina ispanlarga bo‘ysinmadi. Ispanlarning yurishlari ko‘proq qirg‘oqqa yaqin hududlar edi. Lekin 1541 yilda Frantsisko de Orel‘yano Napo daryosidan suzishni boshlab, Amazonkaning quyilish joyigacha etib bordi. Janubiy va Markaziy Amerikadan misli ko‘rilmagan boyliklarga ega bo‘lgan Ispaniya Yevropadagi eng boy davlatga aylandi. Ispanlar va portugallar 1494 yilda Rim papasining farmoniga suyanib barcha yangi Yerlarga o‘z egalik huquqlarini da’vo qilishar, ammo Frantsiya va Gollandiya buni tan olmas edi. Ularning qaroqchi kemalari oltin ortilgan ispan va portugal kemalarini egallab, boyliklarini tortib olar edi. Ingliz Frensis Dreyk yangi Yerlardagi ispan qal‘alariga hujum qilish orqali shuhrat qozondi. U inglizlardan birinchi

bo‘lib, Janubiy Amerika materigini janubdan aylanib o‘tdi va Tinch okean qirg‘oqlaridagi ispan kemalariga orilgan oltinlarga ega bo‘ldi. Uni tutmoqchi bo‘lgan ispan va portugal kemalaridan qochib 48^o shimoliy kenglikkacha bordi, shundan so‘ng g‘arbga burilib, Tinch va Hind okeanlarini kesib o‘tib, Angliyaga qaytib keldi. U shimoliy Amerikaning g‘arbiy qirg‘oqlarini kashf qildi va ikkinchi bo‘lib Yer shari bo‘ylab sayohatni amalga oshirdi. Angliyaning dengizlarda hukmronlik davrini boshlab berdi. Ispanlarning “Yengilmas Armada” floti yengilgandan keyin (1588 y) Angliya dengizlarda yangi Yer ochish uchun erkin suza boshladi.

Janubiy Yerni topishga urinish natijasida Yevropaliklar Avstraliya materigini kashf qildilar. Uning qirg‘oqlari haqida malayaliklardan eshitib, turli yo‘nalishlarda izlab ko‘rib, topganlaridan so‘ng o‘zlari izlagan Janubiy Yer emas ekanligini bilganlar. Antik davr geograflari Ptolomey va Pomponiy Mela janubda yirik materik bo‘lib, u Osiyo va Afrikaning janubiy qirg‘oqlari bilan tutashib turadi deb hisoblaganlar, lekin Marko Polo va Vasko da Gamaning suzishlari bu fikrning noto‘g‘riligini ko‘rsatdi.

XVI asrda Janubiy materik haqidagi fikrlar yana paydo bo‘ldi. Endi Tyerra Australia incognita deb atalgan bu Yerni turli kattalikda tasvirlaganlar. 1570 yilda Abraxam Orteliy dunyo atlasini yaratadi va janubiy materikni nihoyatda ulkan qilib tasvirlaydi hamda u Yerning tabiati haqida afsonaviy ta’riflar keltiradi.

O‘sha davrda dengizchilar uchun janubiy kengliklar noma’lum edi. Dengizchilar 40-kengliklarni “o‘kiruvchi”, 50-kengliklarni “chinquiruvchi”, 60-kengliklarni “quturgan” deb ta’riflaganlar. Lekin ular doimo janubga tomon siljib borganlar. 1616 yilda Yakob Lemer va Villem Sxauten Olovli Yer orolini ochdilar va janubdagi Estados orolini materik deb o‘yladilar. 1526 yilda portugal Jorj Minezisha va 1545 yilda ispan In’igo Ortis de Retes

Papua – YAngi Gvineya qirg'oqlariga etib borganlar. Bundan keyingi kashfiyotlar Okeaniya orollarining ochilishi bilan bog'liq bo'lib, P'edro Sermento de Gamboa va Al'varo Mendan'ya de Neyra Tinch okean hududidagi boy Yerlarni izlab Solomon orollarini kashf etishdi. Lekin boylik yo'q edi. 1567 yildagi bu suzish natijalari unutilgach, 1595 yilda Mendan'ya yana suzishga o'tlanib Markiz orollarini kashf etdi, ammo Solomon orollarini topa olmadi. 1606 yilda Kiros YAngi Gebrid orollarini kashf etdi. 1614 yilda Luis Torres YAngi Gvineya va Avstraliya o'rtasidagi bo'g'ozni ochdi. Ushbu suzishlar bilan ispanlarning geografik kashfiyotlar davri tugadi.

Gollandiyadagi Ost-Indiya kompaniyasi Zond orollarini 1602 yilda egallab oldi. 1605-1606 yilda Villem Yanzon Yangi Gvineyaning janubi-sharqiy qirg'oqlaridan suzib Arafur dengizini kesib o'tadi va Avstraliyaning Keyp-York yarim orolining g'arbiy qirg'oqlariga etib boradi.

1616-1636 yillar davomida gollandlar Avstraliyaning janubiy qirg'oqlari, Arnemlend yarim orolining shimoliy qirg'og'i va Karpentariya qo'ltig'ining sharqiy qirg'oqlarini ochdilar.

Abel Tasman ekspeditsiyasi 1642 yil Tasmaniya orolini (Van-Dimen Yeri), YAngi Zelandiya, Tonga va Fidji orollarini ochdi. Tasmanning 1644 yildagi ekspeditsiyasi Keyp-York yarim orolidan SHimoli-g'arbiy burungacha 5500 km qirg'oqbo'yini kartaga tushirdi. Avstraliya (YAngi Gollandiya) katta orollar majmui yoki yaxlit materik ekanligi aniqlanmadi. Janubiy noma'lum yerning aslida yo'qligi 18-asrgacha noaniq bo'lib qoldi.

Ruslarning geografik kashfiyotlari Sibirning o'zlashtirilishi va SHimoliy Muz okeani qirg'oqlarini aniqlash bilan bog'liqdir. XVI-XVII asrlarda ruslar Sibirni o'zlashtirib, Uzoq SHarqqacha etib bordilar. Bu kashfiyotlarning eng

buyugi Semyon Dejnyovning 1649 yilda CHukotka yarim oroliga etib, Osiyo va Amerika o'rtasidagi bo'g'ozni topganligidir.

Buyuk geografik kashfiyotlar Yevropadagi geografiya fanining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. 1567 yilda Lyudoviko Gvichchardinining "Niderlandiya ta'rifi" kitobi chop etildi. Uni birinchi iqtisodiy geografik qo'llanma deb atasa bo'ladi. Yevropa Uyg'onish davrida Niderlandiya kartografiya fanining rivojlanish markazi bo'ldi. XVI asrda Gerard Kremer (Merkator) va Abraxam Orteliy Buyuk geografik kashfiyotlar natijalarini umumlashtirib, atlas yaratdilar. YAn Vermeer geografik kartalar chizdi. 1544 yilda Sebast'yan Myunster "Kosmografiya" asarini chop qildi. Kitobda noma'lum joylarning afsonaviy tasvirlarini hisobga olmaganda, geografik bilimlarning umumlashtirilishi va fan tizimining yaratilishidagi ilk qadamlardan biri deb atash mumkin.

II. BOB HINDISTONGA DENGIZ YO‘LINING OCHILISHI.

2.1 HINDISTONGA DENGIZ YO‘LINI OCHISH MAQSADIDA AMALGA OSHIRILGAN SAYOHATLAR.

Buyuk geografik kashfiyotlar davriga qadar Yevropaliklarga Yevropa, Osiyo va Afrikaning bir qismigina ma’lum edi. SHarqdan kelayotgan turli savdogarlarning ma’lumotlariga suyanib Xitoy, Hindiston va YAponiya haqida dunyodagi eng boy hududlar sifatida tasavvur hosil bo‘lgan edi. Bu mamlakatlardan olib kelinayotgan mollar, ayniqsa ziravorlar Yevropada juda qimmat turar, Yevropaliklarning oltin va kumushlari kamlik qilib qolgan edi. SHuning uchun ham o‘rta asrlarda har qanday metallni oltinga aylantirishni va’da qiluvchi alximiya fani rivojlanib ketdi. Yevropaliklar SHarqning boy o‘lkalariga etib borishga urinardi, lekin XV asrda Usmoniylar imperiyasi quruqlik yo‘lini to‘sib qo‘ydi.

Hindistonga dengiz orqali borish Yevropa dengiz mamlakatlarining bosh maqsadi bo‘lib qoldi. O‘sha davrdagi bir qancha ixtirolar bu maqsadni amalga oshirishga yordam berdi. Masalan, kitob bosishning ixtiro qilinishi dengizda suzish haqidagi qo‘llanmalarning keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. O‘q otuvchi qurollarning paydo bo‘lishi ham uzoq o‘lkalardagi xavfli suzishlarda yordam berishi mumkin edi. Va nihoyat har qanday shamol yo‘nalishidan foydalanib suza oluvchi yengil va tezsuzar kema – **karavella** yaratildi. Shuningdek, Yerning sharsimonligi haqidagi fikrlar ham Yevropaliklarda Osiyoga har qanday yo‘nalishda yetish mumkinligiga ishonch uyg‘otardi.

Portugaliya qirolligi bu davrga kelib arab xalifaligi qaramligidan butunlay xalos bo‘lgan va hatto dengiz davlati bo‘lishga intilib turli yo‘nalishda dengiz sayohatlarini amalga oshira boshlagan edi. Biroq O‘rta Er

dengizi Venetsiya, Kataloniya, Genuya tomonidan shuningdek, arablar va turklar tomonidan nazorat qilinayotganligi uchun raqobat qilish foydasiz edi. Portugal shahzodasi Enrike (Dengizchi) Afrika qirg'oqlari bo'ylab janubga suzish va shu bilan Sahroi Kabirning janubida joylashgan hududlardan oltin va qullar keltirish rejasini tuzadi. SHu maqsadda malakatda dengizchilik va kemasozlikni takomillashtirish ishlarini yo'lga qo'ydi. Ko'plab kartografik va yozma ma'lumotlar to'plandi va o'rganib chiqildi. Zamondosh tarixchilarning yozishicha shahzoda "...barcha dunyo lazzeatlaridan voz kechib, Hindistonga etib borish va u erdagi millionlab ma'jusiylarni xristian diniga o'tkazish ishqida yonardi". Har qalay shahzoda bunday ishtiyoqda bo'lganligini isbotlash qiyin, lekin 1440 yilda Marko Polo kitobi bilan tanishib, dengizchi kapitanlarga Hindistonga dengizdan borish yo'li haqida ma'lumotlar to'plash topshirig'ini berganligi ma'lum.

Tez vaqt ichida portugallar Afrika g'arbiy qirg'oqlari bo'ylab Boxador burnigacha etib borishdi (26^o sh.k.). lekin bu joy sahrodan iborat bo'lganligi uchun, undan nariga o'tishga hal dengizchilar tayyor emas edi. SHahzodaning takror ekspeditsiyalar jo'natishi bu burundan nariga o'tuvchi dengizchining topilishiga qadar natija bermadi. SHuday ekspeditsiyalardan biri Juan Sarku va Trishtan Teysheyra tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, ularning tajribasizligi natijasida kemalar bo'ronda ochiq dengizga chiqib ketadi va Madeyra orollarining qayta ochilishiga sabab bo'ldi. Bu kashfiyot portugal dengizchilariga ochiq dengizda suzish mumkinligini isbotladi, karavella kemasi boshqarishga qulay va chidamli bo'lib chiqdi. Madeyra orolining ochilishi va portugallarning unga egalik qilishi bilan portugallarning janubiy suvlarda hukmronlik qilish davri boshlandi. 1432 yilda Azor orollarining barchasi portugallar tomonidan egalalndi va G'arbiy Afrika qirg'oqlari bo'ylab suzish uchun maktab vazifasini o'tadi.

1434 yilda Jil Eanish Boxador burnidan o'tdi va o'simliklarning ba'zi turlariga duch keldi, bu holat janubga suzishga imkoniyat mavjudligini bildiruvchi belgi edi. Bir necha yil ichida Blanku burni kashf etildi. Ayni hududlarda Yevropaliklar mahalliy qora tanli qabilalar vakillariga duch keldilar va shu davrdan, aniqrog'i 1441 yildan boshlab portugallar qora tanli qullar savdosi bilan shug'ullana boshladilar. Qullar savdosi portugallarning yanada janubga suzishlariga turtki bo'ldi. 1445 yilda Nunьо Trishtan Senegal daryosigacha etib bordi. (16⁰sh. k). Dinish Diash yashil pal'malar o'sib turgan joyga etdi va uni YAshil burun deb nomladi. Bu burun Blanko (Kabo) burnidan 800 km janubda bo'lib, Kabo burnining Boxador burnigacha bo'lgan masofasiga teng edi. SHunday bo'ldiki Boxadordan Blankogacha masofa 7 yilda, Blankodan YAshil buurngacha 1 yilda etib borildi. Alvaru Fernandish Gambiya daryosining quyilishiga etib bordi. Senegal daryosining quyilishidan boshlab Yevropaliklar haqiqiy afrika aholisi bilan tanishdilar. Bu qabila vakillari shu paytgacha Yevropada uchratilmagan edi. Ular bilan savdo aloqalari o'rnatildi, Yevropa tovarlari, oltin qumi, fil suyagi, mushk va ziravorlar lamashtirib olinardi. Lekin qul savdosi juda katta foyda keltirar edi.

1446 yilda Nunьо Trishtan 12-paralleldagi Bisagushi orollarini ochdi va Tristan oroliga (10,5⁰ sh.k) etib bordi va u erda mahalliy aholi bilan to'qnashuv yuz berib portugallar halok bo'lishdi. 4 matros va bir notarius kemada ikki oy davomida ochiq okeanda suzib Lissabonga etib borishdi. Bu voqea shunisi bilan muhimki, portugal karavellalarining dengizda suzish salohiyatini aniqlab berdi. Kichik ekipaj bilan ham bunday kemalarda uzoq safarlarga chiqish mumkinligi ayon bo'ldi. Enrike (Genrix) Dengizchi hukmronligidagi so'nggi geografik kashfiyot 1456 yilda YAshil Burun orollarining kashf etilishi bo'ldi. Qul savdosi bilan shug'ullanish, Afrikaning g'arbiy qirg'oqlaridan mahalliy aholining materik ichkarisiga ketishiga sabab

bo'ldi, bu esa o'z navbatida portugallarning yana janubga suzishlariga sabab bo'ldi. Natijada Afrikaning g'arbiy qirg'oq chizig'i tobora aniqlasha bordi. Portugallar qul ovlash uchun quyi Kongo hududlarigacha etishdi. SHu bilan portugallar Boxador burnidan San-Katarina burnigacha, ya'ni G'arbiy Sahroi Kabirning cho'l subtropik qirg'oqlaridan quyi Kongoning ekvatorial o'rmonlar chizig'igacha etib borishdi. SHuning uchun ham portugallarning janubga siljish tezligi ularning qul savdosi bilan shug'ullanish jadalligi bilan muvofiq keladi. YAshil burungacha 30 yil, YAshil Burundan Oltin qirg'oqqacha 14 yil, Oltin Qrg'oqdan San Katarina burnigacha 5 yil vaqt ketdi.

Bu burundan janubda Kongo davlati chegaralari boshlanadi shuning uchun ham portugallar endilikda qul ovlashdan ularni sotib olish va ayirboshlash bilan shug'ullana boshladilar. 1461 yilad Peru di Sintra palmas burniga etdi, bu burundan qirg'oq to'g'ri sharqqa buriladi, shunday qilib Sintra G'arbiy Afrika qirg'oqlarining 1000 km lik masofada tadqiq qilib, Gvineya qo'ltig'ini kashf etdi. 1469 yilda qirol Affonsu V Fernan Gomish ismli boy savdogarga Senegambiya (Afrikaning g'arbiy qirg'oqlarini portugallar shunday atashgan) da topilgan fil suyaklari bilan savdo qilishni 5 yillik muddatga butunlay topshiridi va yiliga qirg'oq chizig'ini 500 km masofada tekshirishni shart qilib qo'ydi. Bu topshiriqni bajarish asnosida 2000 km dan ortiq qirg'oq chizig'i o'rganildi va Fil Suyagi Qirg'og'i, Oltin Qirg'oq, Qullar qirg'og'i kartaga tushirib borildi. Portugallar Gvineya qo'ltig'ini Afrikaning janubiy chekkasi deb o'ylaganlar ammo Sikeyra boshchiligidagi kemalar Biafr qo'ltig'idan boshlab qirg'oq yana janubga keskin burilishini aniqladi. SHu bilan Hind okeaniga chiqish umidi so'ndi. Ammo yanada janubroqqa suzish harakatlari davom etaverdi.


1481-82 yillarda qirol Juan II Afrika qirg'oqlarda koloniyalar tashkil etish harakatini boshlaydi. Uning jo'natgan ekspeditsiyalaridan biriga boshchilik qilgan Diogu Kan Janubi-g'arbiy Afrika qirg'oqlarigacha etib bordi, Kongo daryosi quyilish joyi va Angola qirg'oqlariga tosh ustunlar – padranlar o'rnatishni joriy qildi. Uning bu harakati keyinchalik Afrikaning janubiy chekkasiga chiqishga yordam berdi.

Kan ekspeditsiyasidan keyinoq Bartolemeu Diash boshchiligida ikkita kichik kema janubiy yo'nalishda yo'lga chiqadi. Bu ekspeditsiyaga Hindistonga dengiz yo'lini topish topshirilganligi haqida ma'lumotlar yo'q, yanada chuqurroq tekshirish maqsadida jo'nailgan bo'lishi ham mumkin, chunki bu sayohat haqida ma'lumotlar yaxshi saqlanmagan. Kemalar Diogu Kan yo'lidan borib yanada janubroqqa kirib borshdi va yana sahro ko'rinishidagi qirg'oqlarga duch kelishdi. 33^o janubiy kenglikdan keyin bo'ron boshlndi va kemalar ochiq okeanga suzib Afrika qirg'oqlarini ko'zdan yo'qotishdi. Bir qancha vaqt ochiq dengizda

suzgan kemalar sharqqa tomon suzishdi va keyin Diash

**Bartelemeu Diashning Yaxshi Umid burni
va Hind okeaniga chiqish yo'li**





Afrika qirg'oqlaridan aylanib o'tilgan deb hisoblab shimolga burdi. Bir necha kundan keyin qirg'oqlar va cho'ponlar ko'rindi. Cho'ponlardan biri o'ldirilganda keyin bu odamlarning oldingi qora tanli

mahalliy kishilarga o'xshamasligi ayon bo'ldi. Portugallar Janubiy Afrikaning tub joy aholisi koi-koinlar keyinchalik o'zlari gottentot (duduqlar) deb atagan xalq bilan shu tarzda tanishdilar. Diash Afrikaning janubiy qirg'oqlariga etganligini tushundi va qirg'oq bo'ylab suzib Algoa buxtasigacha etdi. Bu erdan qirg'oq shimoli-sharqqa Hindiston tomonga yo'nalgan edi. Shu vaqtgacha yopiq dengiz hisoblangan Hindokeaniga yo'l

topildi. Hindistonga yo‘l ochiq edi, ammo kema ekipajlari orqaga qaytishni talib qildi. Isyondan cho‘chigan Diash yana uch kun qirg‘oqlarning shimoli-sharqiy yo‘nalishini tekshirdi va “chuqur qayg‘u ichida” orqaga qaytdi. G‘arbga tomon suzar ekan, bo‘ronga duch kelgan joydalgi okeanga ancha chiqib turga burunga Tormentoza (Bo‘ronli) deb nom qo‘ydi va padran o‘rnatdi. 1488 yil Lissabonda qirol uning hisobotini eshitar ekan, bu joyga YAxshi Umid deb nom qo‘yishni buyurdi. Lekin Hindistonga yo‘l juda uzoq tuyulganligi uchun portugal hukumati bu imkoniyatdan foydalanishga shoshilmadi. Kemalarni Hindistonga jo‘natish uchun qandaydir g‘ayrioddiy voqea yuz berishi kerak edi. Aynan shunday voqea yuz berdi. 1492 yilda Xristofor Kolumb g‘arbga tomon suzib “Hindistonni” kashf etganligi e‘lon qilindi. Portugal qirol 1487 yilda Peru di Kovilyanni Misrga elchi qilib jo‘natadi. Portugal elchisi bir qancha yillar davomida arablar yashaydigan hududlarni kezib arab kemalarida Hindistonga borib keladi, Efiopiyada yashaydi va Portugaliyaga xabarlar jo‘natib turadi. Uning Afrika sharqiy qirg‘oqlari va Hind okeani haqidagi xabarlaridan qirol Manuel o‘zining Vasko da Gama boshchiligidagi Hindiston ekspeditsiyasini tayyorlashda foydalanganligiga tarixchilar shubha qilmaydilar.

Hindistonga dengiz yo‘lining ochilishi yo‘lida to‘plangan geografik bilimlar va tasavvurlar xronologiyasi.


1-jadval

yillar	sayohatchilar	Geografik bilimlar
1419	Juan Sarku va Trishtan Teysheyra	Madeyra oroli kashf etildi
1432	Gonsalu Velbyu Kabral	Azor orollari to‘liq o‘rganildi

1434	Jil Eanish	Boxador burnidan janubga o'tildi
1441	Antan Gonsalvish va Nunbo Trishtan	Blanko burni (Kabu - Branku) burniga etildi.
1445	Nunbo Trishtan va Alvaru Fernandish	Senegal va Gambiya daryolari quyilishiga etib borildi, YAshil burun kashf etildi.
1446	Nunbo Trishtan	Bisagushi arxipelagi, Tristan oroli kashf etildi
1455	Alvize de Kodomosta	YAshil Burun orollari ochildi
1456	Diogu Gomish	G'arbiy Sudan va Niger daryosi haqida ma'lumotlar to'plandi.
1461	Peru di Sintra	Gvineya qo'ltig'i qirg'oqlari o'rganildi.
1481-1486	Diogu Kan	Kongo daryosi quyilishi, Angola, 22 ^o j.k gacha o'rganildi.
1487-1488	Bartolomeu Diash	Afrikaning 2,5 ming km lik masofadagi qirg'oq chizig'i o'rganildi, janubiy qirg'oq aylanib o'tildi va Hind okeaniga chiqildi.

II.2. VASKO DA GAMA VA HINDISTONGA DENGIZ YO‘LINING OCHILISHI.

Vasko da Gama o‘rta asrlar davridagi eng buyuk o‘zgarishlarga sabab bo‘ladigan geografik kashfiyotlardan birini Hindistonga haqiqiy dengiz yo‘lini ochgan sayohatchidir. Uning shaxsi qandayligi va sayohat maqsadi qandayligidan qat’iy nazar bu kashfiyot jamiyat taraqqiyotining yangi sahifasini ochib berdi. Yevropa mamlakatlarining dunyo qismlariga etib borishi va koloniyachilik siyosatining boshlanib ketishi uchun yo‘l ochib berdi. SHak-shubhasiz tarixiy va geografik nuqtai nazardan Amerikaning kashf etilishi, dunyo bo‘ylab aylana sayohat va Hindistonga dengiz yo‘lining ochilishi haqli ravishda eng buyuk geografik kashfiyotlardandir.



Har qanday hodisa o‘zining batafsil tarixiga ega. Bu tafsilotlar voqeaning va uning ishtirokchilarining e‘iborga molik jihatlarini ochib beradi, bu haqda yaxshiroq tasavvur hosil qiladi. SHunga ko‘ra Hindistonga dengiz yo‘lining ochilishi voqeasini batafsil bayon qilish Vasko da Gama shaxsini ochib berish bilan birga bu sayohatning qanchalik qiyin kechganligi va uning oqibatlari qanday bo‘lganligi haqida tasavvur hosil qilish maqsadga muvofiq ishdir.

X. Kolumb tomonidan G‘arbiy Hindiston kashf etilganligi e‘lon qilinganidan keyin, portugal hukumati SHarqiy Hindistonni egallashga shoshila boshladi. 1497 yilda Afrikani aylanib Hindistonga borishi ko‘zda tutilgan kemalar tayyorlana boshladi. Portugal qirollari mashhur dengizchilardan ehtiyot bo‘lishni ma’qul ko‘rar edilar, shuning uchun yangi

ekspeditsiyaga Bartolomeu Diash emas, yosh, o'zini ko'rsatmagan saroy a'yon Vasko da Gama tayinlanadi.

Vasko da Gama ixtiyoriga 3 ta kema ajratiladi. Kemalarning ikkitasi og'ir bo'lib, 100-120 tonna suv sig'imiga ega bo'lgan "San-Gabriel" kemasiga Vasko da Gama admiral bayrog'ini o'rnatdi, bu kemaning kapitani Gonsalu Alvarish edi. "San-Rafael" kemasining kapitani Vasko da Gamaning akasi Paulu da Gama tayinlangan va tezyurar suv sig'imi 50 tonna bo'lgan "Berriu" kemasi bo'lib, uning kapitani Nikolau Kuelbyu bo'lgan. Bulardan tashqari flotiliyaga zahiralar ortilgan Gonsalu Nunish boshchiligidagi katta yuk tashuvchi kema hamrohlik qilardi. Barcha kemalarning a'zolarini hisoblaganda 140-170 ta odam to'plangan. Ular orasida o'limga hukm qilingan 10-12 ta jinoyatchilar ham bor edi. Gama ularni eng qiyin ishlarda foydalanish uchun qirolidan so'rab olgan edi.

1497 iyul oyida flotiliya Lissabon portidan chiqdi va YAshil Burun orollariga, undan janubi-sharqqa, Serra-Leonega yo'l oldi. Sayohatning bu bosqichida Vasko da Gamaning Oltin Qirg'oqdagi Mina fortiga boshliq qilib tayinlangan Bartolomeu Diash boshchiligidagi kema kuzatib bordi. Diash bilan ajralgandan keyin Vasko da Gama tajribali dengizchilar maslahatlariga amal qilgan holda Ekvatorial va Janubiy Afrikaning qarshi shamollari va oqimlariga duch kelmaslik uchun avval to'g'ri janubi-g'arbga, ekvatoridan o'tgnadan keyin janubi-sharqqa burildi. Vasko da Gamaning Atlantika okeanida suzgan vaqti haqida aniq ma'lumotlar yo'q, uning Braziliya qirg'oqlariga yaqin borganligi keyingi sayohatlar yo'nalishlaridan aniqlangan. 1 noyabrda portugallar sharq tomonda qirg'oqni ko'rishdi va uch kundan keyin keng qo'ltiqqa kirib borishadi. Bu joyga Sent-Xelina (Avliyo Elena 32°40' j.k.) deb nom beriladi va Santyagu daryosi (hozirgi Greyt - Berg) ning quyilish joyiga kirishdi. Vasko da Gama Afrikaning janubiy

qirg'oqlarida bushmenlar va gottentotlar bilan uchrashadi, ular bilan savdo aolqalariga kirishadi.

Dekabir o'rtalarida Gama Diash etib borgan oxirgi nuqtagacha bordi, 1497 yilning so'nggi kunlari, rojdestvo bayrami kuni kemalar shimoli-



sharqqa tomon suzib, 31⁰j.k da baland qirg'oqqa etishadi va Gama unga Natal (Rojdestvo) deb nom beradi. 11 yanvar 1498 yili flotiliya qandaydir daryoning quyilishi joyiga langanr tashladi. Ularga yaqinlashgan mahalliy aholi bilan bantu tilida muloqotga kirishadilar. Odatda portugallar bu tilda Gvineya qo'ltig'i xalqlari bilan so'zlashar edilar. Ma'lum bo'ldiki, bantu xalqlari tili bir-biriga juda yaqin ekan. Bu hududda dehqonchilik yaxshi rivojlangan, odamlar temir va rangli metallarni qayta ishlash bilan shug'ullanar edi. Bu hudud odamlari Vasko da Gama va uning hamrohlarini juda yaxshi kutib olganligi uchun, bu erga "YAxshi odamlar mamlakati" deb nom qo'yadilar.

SHimolga qarab yo'lni davom etgan kemalar 25 yanvar kuni bir necha daryo quyiladigan limanga (13⁰j.k.)kirib keldi. Mahalliy aholi ularga yaxshi muomalada bo'ldi. Qabila sardorlari ularga sharqda ishlangan matoni sotmoqchi bo'lardi. Vasko da Gama Hindistonga yaqin qolganligini shundan sezdi. U limanni "YAxshi xabarlar daryosi" deb nomladi. Limanga Kvakva-Zambezi daryosi del'tasining bir tarmog'i quyiladi. SHundan Vasko da Gama Zambezi daryosining quyilish joyini topgan degan noto'g'ri ma'lumot paydo

bo'lib, uning bergan nomini Zambeziga tatbiq qilishadi. "YAxshi xabarlar daryosi" qirg'og'ida portugallar bir oy davomida kemalarni ta'mirladilar. Ularning ko'pchiligi tsinga bilan kasallandi, ko'pchiligi o'lib ketdi.

24 fevralda flotiliya yana yo'lga chiqdi va besh kundan keyin Mozambik portiga, 15⁰ j.k ga etib bordi. Bu portga arab kemalari doimo kelib, savdo bilan shug'ullanib turgan. Port aholisi bantu, arab va ularning aralashmasidan iborat turli xalqlardan tashkil topgan edi. Islom diniga ko'pchilik rioya qilgan bu joyda mahalliy shayxlar hukmronlik qilar edi.

Arablar portugal kemalarida o'zlarining bo'lajak raqiblarini ko'rdilar va ularga dushmanlik kayfiyatida bo'ldilar. Portugallar ichimlik suvini olish uchun ham qirg'oqbo'yi hududlarini to'plarga tutib, odamlar qochib ketgandan so'ng qirg'oqqa tushar edi. SHu tariqa portugallar sayohatining bu qismini qaroqchilik faoliyatiga o'xshatsa bo'ladi, chunki qirg'oqdagi shaharlar hamda uchragan kemalarni talab, narsalarni o'lja qilib olar edilar.

Mahalliy lotsmanlarga ishonmagan Vasko da Gama mahalliy aholidan asir qilib olgan odamlarini qiynab, ulardan Hindstonga boradigan yo'lni aniqlab olishga urinadi. Aprel oyining boshida portugal kemalari Mombasa(4⁰j.k) port shahriga yaqinlashdi. Bu hududning hukmdori portugallarni dushmanlarcha kutib oldi va Vasko da Gama suzishda davom etib, 14 aprelda Malindi (3⁰j.k) gavaniga langar tashladi. Mombasa hukmdoriga dushman bo'lgan mahalliy shayx ularni yaxshi kutib oldi va ularga yo'lni yaxshi biladigan, ularni Hindistongacha olib bora oladigan lotsman bilan ta'minladi. Bu odam Ahmad ibn Majid bo'lib, o'z davrining buyuk darg'asi va olimi edi. U o'z tajribasi va qadimiy arab manbalaridan foydalanib, dengizda suzish ilmining nazariy va amaliy ma'lumotlari, Hind okeani g'arbiy qismi dengiz yo'llarining to'plamini tuzgan.

Ibn Majid portugallarni shimoli-sharqqa boshladi va yo'lovchi musson shamolidan foydalanib kemalarni Hindistonga etkazib bordi. Mahalliy tarixchilardan biri Ahmad ibn Majidning bu xizmati haqida yozib uning yo'l ko'rsatishigacha biror Yevropalik Hind okeaniga kirib kela olmagan edi. Portugallar sardori uni mast qilib yo'lni va okeanda suzish sirlarini bilib olganligi haqida yozadi. Qanday bo'lganda ham portugallarning Hindistonga etib borishlari va qaytishlarida uning xizmati beqiyosdir.

17 may kuni Hindiston qirg'oqlari ko'ringandan so'ng ibn Majid kemalarni janubga boshlaydi va 20 may kuni kemalar Hindistonning Kalikut

portiga langar tashlaydi. Portugallarning bu hududlarga kirib kelishi arab savdogarlari va hukmdorlariga yoqmasligi tabiiy bo‘gani holda mahalliy hukmdorlar bunga ancha befarq qaraydilar. Arablar ta’sirida mahalliy samorin (hukmdor) portugallar bilan dushmanchilik kayfiyatida bo‘ladi, ular bilan aloqaga kirishmaydi va yuklarini tortib olishga harakat qyadi. Natijada bir qancha kishilarni garovga olgan Vasko da Gama 29 avgustda Kalikutni tark etadi.

Kemalar shimolga qarab suzib Anjidiv ($14^{\circ}45'$ sh.k) oroli yaqinida to‘xtaydi. Bu erda kemalar remont qilinadi va oktyabr oyining boshida yo‘lga chiqadi. Uchoy davomida kemalar Arabiston dengizida turib qoladi, nihoyat yo‘lovchi shamol esib, 1499 yil yanvar oyining boshida Somali qirg‘oqlarga etib bordilar, Mogadisho portiga to‘xtashga yuragi dov bermagan Vasko da Gama janubga buriladi va Malindiga etib boradi. Bu erda bir necha kun dam olgandan so‘ng Vasko da Gama qirg‘oqqa padran o‘rnatadi va yo‘lga chiqadi. Mombasa hududida u “San-Rafael” kemasini yoqib yubrishga majbur bo‘ladi. Chunki odamlar juda kamayib ketgan edi. 1 fevralda Mozambik portiga etib boriladi. Yaxshi Umid burnini aylanib o‘tishga etti hafta, Yashil burun orollariga etib borishga to‘rt hafta vaqt ketadi. 10 iyul 1499 yilda “San-Gabriel” kemasi “Berriu” kemasidan ajralib, Kuelbyu boshchiligida Lissabonga birinchi bo‘lib etib boradi. Vasko da Gama akasining kasalligi tufayli shoshilib, tezyurar karavellada vatanga tezroq etib borishga harakat qiladi. Azor orollarida akasini dafn qilgan Vasko da Gama avgust oxirida Portugaliyaga qaytadi. Shunday qilib buyuk sayohatlardan biri yakun topadi. Bu sayohatning o‘sha davrda Portugaliyaga qanchalik katta imkoniyatlar eshigini ochganligi tasavurga sig‘maydi. Yo‘lga chiqqan to‘rt kemadan ikkitasi, ekipaj a’zolaridan yarmi (55 kishi) qaytdi.

Ekspeditsiyaning bevosita moliyaviy natijalari va yutuqlari haqida ma'lumotlar turlicha va qarama-qarshidir. Har qalay zarar ko'rilmaganligi aniq, chunki portugallar Kalikutda bir qancha ziravorlar to'plashgan, bundan tashqari Arabiston dengizida qaroqchilikdan orttirilgan boyliklar ham bor edi. Nima bo'lganda ham, Lissabonning hukmron doirasi bu ekspeditsiya natijalaridan juda katta foyda kelishini bildilar. Hindiston bilan bevosita dengiz savdo yo'lining ochilishi ishning iqtisodiy, siyosiy va harbiy nuqtai nazardan muvofiq ravishda tashkil qilinishida ulkan imkoniyatlar yaratishini ular bilar edi.

Darhaqiqat Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi faqat Portugaliya uchun emas, jahon savdosi uchun ham katta ahamiyat kasb etdi. SHu davrdan boshlab 1869 yilda Suvaysh kanalining ishga tushgunicha Yevropaning sharq mamlakatlari va Xitoy bilan savdo aloqalari O'rta er dengizi orqali emas Atlantika okeani orqali o'tadi. Portugaliya buyuk dengiz davlatiga aylanib, Janubiy va SHarqiy Osiyo bilan savdo aloqalarini monopollashtirdi va 90 yil davomida, 1588 yilda "Engilmas Armada" tor-mor etilguniga qadar qo'lida ushlab turdi. E'tirof etish kerakki, Yevropaliklarga buyuk o'lkani egallash va talashga yo'l ochib bergan Vasko da Gama ekspeditsiyasi Hindistonning o'zida sezilmadi ham.

Vasko da Gama ekspeditsiyasi yuqorda aytilganidek, Yevropa davlatlarining rivojlanishiga yangi yo'nalish ochib bergani holda, Osiyo ayniqsa, Hindiston uchun ijtimoiy va siyosiy jihatdan salbiy oqibatlarga ega bo'ldi.

Portugaliya mustamlakalari. Qirollikning Hind okeaniga har yili o'nlab harbiy kemalarni yuborishi faqat savdo-sotiq maqsadida bo'lmagan, albatta. Lekin Portugaliya bu usulda Hindistonni va Osiyoning millionlab aholisi bo'lgan boshqa mam-lakatlarni istilo qilishga qodir emasdi. Portugallar “

Hindistonda, Arabistonda, Sharqiy Afrika dengiz sohil-larida bir necha muhim port shaharlarini bosib oldilar. Istilo qilingan shaharlar aholisi qirg'in qilinib, qal'alar vayronaga aylantirildi, Hindistonda "Xayriyatki, portugallar yo'lbars va sherlar kabi ozchilik, aks holda, ular Yer yuzidagi hamma odamlarni qirib, butunlay yo'q qilib yuborgan bo'iardi", - deb aytishardi.

Portugallar arab va hind savdogarlarining mollarini talar va kemalarini dengizga cho'ktirib yuborar, asirga olingan kema a'zolarini esa o'ldirar yoki qul qilib solar-I dilar. Ular o'qotar to'plari, qurol-aslahalari hamda kemalarining ustunligidan foydalanib arablarni asta-sekin Hind okeanidan siqib chiqardilar va Hindistonga boradigan dengiz yo'lini to'liq egallab oldilar, Keyinchalik portugallar ziravorlar: murch, anbar, mushk, dolchinning eng yaxshi navlari yetishtiriladigart Zond va Moiukk orollariga kirib bordilar. Sharqqa tomon suzishda davom etgan portugallar vaqt o'tib Xitoy va Yaponiya sohillariga yetdilar.

2. 3. HINDISTONGA QILINGAN SAYOHATLAR NATIJASIDA ORTTIRILGAN UMUMIY GEOGRAFIK BILIMLAR.

Hindistonga dengiz yo‘lidan borishga bo‘lgan harakatlar o‘sha davrdamavjud geografik bilimlarga tayanadi. Ptolomeyning geografik qarashlari va chizgan xaritasi o‘sha davr ilmiy doiralarida yuqori qadrlangan, shuningdek cherkov tomonidan ham tasdiqlangan. SHunga ko‘ra boshqacha fikrning amalga oshishi uchun muhim siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar bo‘lib o‘tishi lozim edi. Yevropa davlatlarining dengiz yo‘li orqali yangi hududlarga intilishi iqtisodiy va siyosiy manfaatlar yo‘lidagi urinishlar edi. SHu bilan birga bu intiishlar geografik dunyoqarash va geografiya fanining to‘g‘ri tasavvurlar orqali rivojlanishiga muhim hissa qo‘shdi. Hindistonga dengiz yo‘lining ochilishiga ham aynan geografik bilimlar va dunyoqarashdagi noto‘g‘ri tasavvurlar to‘sqinlik qilganligi ta’kidlanadi.

SHuning uchun ham to XV asrning ikkinchi yarmiga qadar Yevropa davlatlari Hindistonga dengizdan borishning iloji yo‘qligini tan olib, turli yo‘llar bilan SHarq mamlakatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazishga harakat qilishgan. Lekin aynan geografik omillar bu davlatlarning quruqlik orqali dunyoga egalik qila olmasligini taqozo qilgan. Dengizlar bilan o‘ralganlik, Evrosiyo kengiliklariga chiqish yo‘li tog‘lar bilan to‘silganligi, asrlar mobaynida Yevropa xalqlarini bir qadar yopiq hududda rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Lekin ijtimoiy taraqqiyot va siyosiy vaziyatlar hamda iqtisodiy rivojlanish shunday bir nuqtaga etadiki, ko‘pdan amalga oshmay turgan, lekin doimo rejalashtirib kelingan ishlarni amalga oshirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. SHunday vaziyat Yevropada 15-asrda paydo bo‘ldi. Bu ko‘plab ixtirolar, dengizda suzish ilmining takomillashuvi, dunyo qismlari haqida ma’lumotlarning to‘planib borishi, o‘zaro va ichki urushlarning avj

olishi natijasida turli davlat tuzilmalaridagi siyosiy o'zgarishlarga boy davr bo'lib, Yevropa davlatlarining ayniqsa, Atlantika okeaniga tutash davlatlarda tub ijtimoiy-siyosiy burilishlarga olib keldi. Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi tarixiy zarurat edi va albatta qachondir amalga oshishi aniq bo'lgan hodisa bo'lgan, zero bu o'lkaga etib borish Yevropa davlatlarining azaliy orzusi bo'lib kelgan. SHunga ko'ra bu voqeaning siyosiy va ijtimoiy oqibatlarini o'rganishdan oldin geografik zarurat ekanligini ta'kidlash joiz va aynan geografik zaruratning bo'lishi Buyuk geografik kashfiyotlar davrining boshlanishiga turki bergan.

YUqorida ta'kidlanganidek, Hindistonga ikkita yo'l: Atlantika okeani orqali to'g'ri g'arbga suzish, hamda Afrikani aylanib o'tib, Hind okeani orqali etib borish. Ammo ikkala yo'l haqida geografik manbalar jiddiy e'tirozlarga ega ediki, bu e'tirozlar qadimgi geografik manbalar, diniy va hukmron doiralarda o'z e'tirofiga ega edi.

Hindistonga dengiz orqali borishga to'sqinlik qiluvchi e'tirozlar va bu yo'lga undovchi manbalar har ikkala yo'l uchun turli darajada asosga ega edi shunga ko'ra bu asoslarni quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Geografik sayohatlarga ta'sir etuvchi omillar

2-jadval

1-yo'l. Atlantika okeani orqali g'arbga tomon suzish.		2-yo'l. Afrikani aylanib o'tish orqali Hind okeaniga chiqish va Hindistonga yetib borish	
<i>To'sqinlik qiluvchi e'tirozlar</i>	<i>Undovchi manbalar</i>	<i>To'sqinlik qiluvchi e'tirozlar</i>	<i>Undovchi manbalar</i>
Yerning yassi ekanligi haqidagi tasavvurlar va manbalar.	Yerning sharsimonligi haqidagi fikrlar	Ekvator qaynoq mintaqa mavjudligi haqidagi fikrlar	Qadimgi finikiyaliklarning qit'ani aylanib suzganligi haqidagi ma'lumotlar.
Okeanning ichki hududlarida suzishning iloji yo'qligi haqidagi fikrlar	Al-Xorazmiyning meridian yoyini o'lchash natijalari va uning italyan milyasiga noto'g'ri muvoqlashtirish	Hind okeanining yopiq dengiz ekanligi haqida tasavvurlar	Marko Poloning Hind okeani orqali suzishi, Zanzibar oroli haqidagi arab manbalari.
Noma'lum hududlar haqida ma'lumotlar yo'qligi	Kartografik manbalar, dengizda suzishning takomillashuvi, kemasozlikning rivojlanishi	Noma'lum hududlar haqida ma'lumotlar yo'qligi	Kartografik manbalar, dengizda suzishning takomillashuvi, kemasozlikning rivojlanishi

Ko‘rinib turibdiki, har ikkala dalillar ham ikkala yo‘l uchun bitta nuqtaga birlashadi. Natijada amaliy tekshirib ko‘rishdan boshqa iloj yo‘qligi e‘tirof etiladi. SHuningdek, bu sayohatlarni amalga oshirishga undovchi dalillar qatoriga texnik ixtirolar (o‘q otar qurollar), ijtimoiy-siyosiy vaziyat (O‘rta Er dengizidagi raqobat), maishiy ehtiyojlar (sharq matolari, murch va ziravorlarning qimmatligi, Yevropa davlatlarida mablag‘ etishmasligi), huquqiy holatlar (mayorat qonuni, ya‘ni merosning to‘liq faqat katta farzandga qolishi) kabilarni ham kiritish mumkin.

SHunday qilib, Hindistonga etib borish orzusi zaruratga aylandi. Iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatning o‘zi shuni taqozo qilar edi. Buning uchun kerakli bo‘lgan qo‘shimcha bilimlar, dengizda suzish(navigatsiya), kema injenerligi, kemani boshqarish, meditsina va nihoyat o‘zlariga bo‘lgan ishonchning takomillashuvi uchun ham vaqt etarli bo‘ldi. Yevropa xalqlaridagi bu intilishning bosh negizi boylik va hukmronlik kabi niyatlar bo‘lsada, ularga etishish uchun ijtimoiy taraqqiyot yo‘lini to‘g‘ri tanlay bildilar.

Buyuk geografik kashfiyotlar davrining boshlanishiga siyosiy muhit ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Yevropa davlatlarida kuchli siyosiy inqiroz yuz bera boshlagan edi. Protestantizmning rivojlanishi, YUz yillik urush, feodal tarqoqlik kabi omillar Angliya, Frantsiya va Germaniya o‘lkalarining o‘zaro ichki muammolarga o‘ralashib qolishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, Ispaniya va Portugaliya davlatlari arablar hukmronligi ostidagi erlarini qaytarib olgan va o‘zlarining hududlarini kengaytirish bilan shug‘ullana boshlagan edi. Aynan shu davlatlar Atlantika okeani orqali Osiyoga etib borishga ta‘bir joiz bo‘lsa, majbur edilar. CHunki, O‘rta Er dengizi orqali savdo qilish ularga juda qimmatga tushayotgan edi.

YUqorida ta’kidlanganidek Hindistonga yetib borish bosh maqsad bo’lgan. Bu yo’lda harakat qilish Yevropa davlatlarining yangi geografik bilimlar bilan boyishlariga olib keldi.

Hindistonga dengiz yo’lining ochilishi natijasida egallangan geografik bilimlarni ikki toifaga ajratish mumkin.

1. Hindistonga dengiz yo’lining ochilishiga qilingan harakat natijasida orttirilgan tajribaviy geografik bilimlar;
2. Hindistonga dengiz yo’lini ko’rsatuvchi haqiqiy geografik bilimlar.

O’sha davrda orttirilgan geografik bilimlarning bunday toifalarga bo’lishning sababi X. Kolumb va uning izdoshlari bo’lgan keyingi sayohatchilar va hatto aniqlangan hududlarning YAngi dunyo deb atalishi joriy bo’lgan davrda ham Hindistonga dengiz yo’lining ochilishi uchun harakat qilganlar. X. Kolumb Osiyo qirg’oqlariga etib borganligiga to’la ishonch bilan olamdan o’tgan. SHuningdek, Angliya va Frantsiya, Gollandiya dengizchilarining shimoliy yo’l orqali Osiyoga intilishlarining bosh maqsadi ham Hindistonga dengiz yo’lining ochilishi bo’lgan. Afrikaning janubidan aylanib o’tish yagona yo’l emasligi isbotlanishi uchun birmuncha vaqt o’tgan bo’lsa, aynan Fernan Magellan sayohati buni isbotlab berdi. SHu tariqa Yevropaning Hindistonga etib borishga intilishi geografiya fanining rivojlanishiga katta turtki berganligini e’tirof etgan holda, olam haqidagi umumiy tasavvurlarning ham tubdan o’zgarishiga sabab bo’ldi.

Hindistonga dengiz yo’lining ochilishi natijasida orttirilgan geografik bilimlarning toifalar bo’yicha ajratilishi ularning ahamiyatini pasaytirmaydi. SHunga ko’ra bu bilimlarni quyidagicha tahlil qilish va umumlashtirish mumkin:

Hindistonga dengiz yo‘lining ochilishi natijasida orttirilgan geografik bilimlar.

3-jadval

Hindistonga dengiz yo‘lining ochilishiga qilingan harakat natijasida orttirilgan tajribaviy geografik bilimlar	Hindistonga dengiz yo‘lini ko‘rsatuvchi haqiqiy geografik bilimlar.
Atlantika okeanini g‘arbiy yo‘nalishda kesib o‘tishning mumkinligi	Afrika qirg‘oqlari bo‘ylab janubga tomon suzish harakatlari
X. Kolumbning yangi qit‘aga yetib borishi.	Afrikaning turli iqlim mintaqalariga egaligi va g‘arbiy qirg‘oq chiziqlarining kartaga tushirilishi
Karib dengizida orollarning topilishi. Amerika qit‘asini o‘zlashtirish.	Afrika qit‘asining janubiy noma‘lum yer bilan tutash emasligi.
Yer aylanasi bo‘ylab sayohatning amalga oshirilishi.	Hind okeanining yopiq dengiz emasligi.
Yer sharidagi iqlim mintaqalari, okean oqimlari haqidagi va kartografik bilimlarning takomillashuvi, o‘simlik va hayvonot olami, insoniyat irqiy belgilarining tafovutlari haqidagi umumiy bilimlar.	

Ushbu davrdagi geografik bilimlarni sxematiktarzda ifodalash orqali bu bilimlarning yaxlitlashuvi va umumiy xususiyatlarining bog‘lanishini tasavvur qilish mumkin bo‘ladi.

Hindistonga dengiz yo'lining qidirilishi.

Atlantika okeani orqali g'arbga suzish. G'oya muallifi X. Kolumb. ?oyani amalga oshirish uchun ketgan vaqt (1485-1492) 7 yil. Atlantika okeanini kesib o'tishga ketgan vaqt 72 kun. 1492 3 avgustdan 12 – oktyabrgacha.

Afrikani janubdan aylanib o'tish. qirollar Enrike Dengizchi, Manuel I.

G'oyani amalga oshirishga ketgan vaqt (1416-1498) 82 yil. Afrika janubini aylanib o'tish va Hindistonga yetib borish uchun ketgan vaqt 1497 yil 8 iyuldan 1498 yil 17 maygacha. 10 oy, 9 kun.

G'oyalarni amalga oshirish jarayonida orttirilgan geografik bilimlar

Atlantika okeani oqimlari, Sargass dengizining o'ziga xosligi, Karib dengizi va undagi orollar, Janubiy Amerika materigining qirg'oq chiziqlari.

Afrika materigi qirg'oq chiziqlari, iqlim va tabiiy sharoitning o'zgarib borishi, okeanlarning tutashmaganligi, Afrika materigining janubiy va sharqiy qirg'oq chiziqlari, Atlantika okeani, Hind okeani va Arabiston dengizi tabiiy sharoiti.

Amalga oshirilgan g'oyalar natijasida kelib chiqqan yangi geografik kashfiyotlar

Amerika qit'asining ochilishi, Dunyo bo'ylab sayohatning amalga oshirilishi, Tinch okeani tabiiy sharoiti, Osiyoning janubi-sharqiy qirg'oqlari va orollari. Amerikaning shimoliy hududlari.


Hind okeani orollari, Dunyo b'ylab sayohatning amalga oshishi, Osiyoning janubiy qirg'oq chiziqlari va orollari.

III. BOB. HINDISTONGA DENGIZ YO‘LI OCHILISHINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI.

3.1. HINDISTONGA DENGIZ YO‘LI OCHILISHINING SIYOSIY, IJTIMOIIY VA IQTISODIY AHAMIYATI VA OQIBATLARI.

Hindistonga dengiz yo‘lining ochilishi geografik bilimlarni oshirishdan tashqari ulkan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘ldi va turli darajada qabul qilinadgan oqibatlar keltirib chiqardi. O‘sha davrdagi siyosiy vaziyat Yevropa davlatlari uchun unchalik qulay emas edi, O‘rta Er dengizining arablar tomonidan nazorat qilinishi, salib yurishlarining muvaffaqiyatsiz natijalari, keyinchalik Usmoniylar imperiyasining kuchayishi, SHarq bilan savdo aloqalaridagi to‘siqlar bilan birga siyosiy xavf ham edi. Yevropa mamlakatlari rivojlanishning barqarorligi uchun YAqin sharqdagi davlatlar bilan murosa qilishga majbur edilar. Bu o‘z navbatida iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatning barqarorligini ta’inlashga yordam beradi. Yevropa iqtisodiyoti Buyuk geografik kashfiyotlar arafasida juda nochor holatda bo‘lganligi ma’lum. Ma’lumotlarga ko‘ra butun qit’ada 90 tonna oltin bo‘lgan. SHarq mollari, ayniqsa ziravorlarga ehtiyoj kuchli bo‘lganligi, ularning juda qimmat sotilishiga olib keldi. Qishloq xo‘jaligi va shahar hunarmandchiligiga asoslangan iqtisodiyot mehnat samaradorligi yo‘lida turli tajribalar o‘tkazishga sabab bo‘ldi. Fanda erishilgan yutuqlardan hunarmandlar unumli foydalanganlar. Salib yurishlari natijasida ko‘pgina kimyoviy, mexanik va amaliy matematik bilimlar orttirgan Yevropalik olimlar mexanik mashinalar, xususan kitob bosish dastgohi, to‘quv dastgohi, suv kuchidan foydalanishga yordam beraigan tishli g‘ildirak kabilarni ixtiro qildilar, oyna buyumlari yasashni mukammallashtirdilar. Kemasozlik ayniqsa, yaxshi natijalar berdi. Karavella kemasi, oldingi yasalgan,

shuningdek arab va turk kemalaridan shunisi bilan farq qilar ediki, hajmi kichik, bir machtali, elkanlari shamolga qiya joylashgan bo'lib, shamolga teskari suzish imkoniyati mavjud edi, kamchiligi suvga kam botishi natijada uning ustida muvozanat saqlashning qiyinligi bo'lib, ko'p yuk va qurollarni ortish mumkin bo'lmagan. Lekin tez yurar va bo'ronlarga chidamli ekanligi isbotlanganligini oldingi boblarda aytib o'tildi. Keyinchalik karavellalarning hajmi kattalashdi, elkanlar takomillashtirildi va shuningdek suvga botishi orttirildi. Natijada bu ishlarni amalga oshirgan portugallar, kam soni bo'la turib Hind okeaniga egalik qildilar, shuningdek, Yevropaliklarga dunyo okeanlarining turli joylarida suzish imkoniyatini berdi.



Karavella kemasi XV asr.

Shuningdek o'qotar qurollar, mushket miltiqdari va to'plar Yevropa qurosozligida katta yutuq edi. Dengizda jang qilishning turli taktikalariga ular

O'rta er dengizida arablar va turklar bilan to'qnashuvlarda, shuningdek o'zaro urushlarda o'rgangan edilar.

Ayni omillar Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi bilan birga dunyodagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatni o'zgartirishda katta rol o'ynaydi.

Qurollarning va kemalarning takomillashuvi oz sonli portugallarga Arabiston dengizi a Hind okeanida to'liq xo'jayin bo'lishlariga yordam berdi. SHarq mamlakatalarida dengiz bo'yi hududlariga e'tibor kam bo'lgan. O'sha davrda Hindistonda hukmronlik qilayotgan Boburiylar, Eron shohlari, Usmoniylar va arablar dengizichlik, dengiz kemasozligini takomillashtirishga urinmaganlar. Ularning hukmronligi quruqlik hududlarini egallashga qaratilgan edi. Buning asosiy sababi o'sha vaqtlardagi yirik savdo yo'llarining, xususan Buyuk Ipak yo'lining quruqlikdan o'tishi bo'lgan. Arablar va turklarning kemalari savdo va transport uchun qulay bo'lgani holda dengiz janglarida Yevropaliklarning kemalariga tezlikda va harakatchanlikda bas kela olmas edi. Bundan tashqari kemalardagi to'plar ko'p narsani hal qilgan. Masalan Vasko da Gama Hindistonga ikkinchi marta kelganida Kalikut shahrini kemalardagi to'plar yordamida vayron qiladi va shahar aholisini bo'ysindiradi. SHuningdek arablarning katta harbiy flotini tor-mor qiladi. Uning ixtiyorida 100 ta kema bor edi.

Hindiston va Eron qirg'oqlarida portugal koloniyalarining bunyod qilinishi va ularning dengizdagi hukmronligi savdo aloqalarining yangicha yo'nalishda rivojlanishiga sabab bo'ldi. Portugaliya 90 yil maobaynida Yevropani sharq mollari bilan ta'minlaydigan yagona davlat bo'lib qoldi. Natijada Portugaliya o'sha davrdagi Yevropaning eng boy va omadli davlati hisoblangan. Ular Hindiston qirg'oqlarida koloniyalar tashkil etish bilan birga yanada sharqqa suzib, Hindixitoy yarim oroli, Xitoyning sharqiy

qirg'oqlari va YApon orollarigacha etib bordilar. Lekin ularning takabburligi SHarqdagi davlatlarda portugallar haqida yomon fikr uyg'otdi va keyingi davrlarda, YAponiya va qator Osiyo davlatlari Yevropaliklardan aynan portugallarga o'z hududlariga kirishni ta'qiqlab qo'ydilar. Aytish kerakki portugallarnig dengizdagi savdo yo'llariga egaligi umumiy iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni unchalik o'zgartirmadi. Buyuk Ipak yo'lining faoliyati davom etdi, Italiya shaharlari bu yo'ldagi asosiy vositachililar bo'lib qolaverdi. Osiyo davlatlari Xitoy va Hindistondan keluvchi mollarning asosiy etkazuvchilari edilar. Portugallarning kamsonligi, ularning koloniyalar bilan aloqa qilishlaridagi qiyinchiliklar, boshqa Yevropa davlatlaridagi ijtimoiy taraqqiyot Portugaliyaning Hind okeanidan asta-sekin siqib chiqarilishiga olib keldi. Ispaniyaga qaramlikdan qutulgan Gollandiya kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlariga o'tdi va iqtisodiy – ijtimoiy taraqqiyotning yangi bosqichini rivojlantira boshladi. Angliyaning dengiz hukmronligi uchun kurashi muvaffaqiyat bilan tugadi. Endilikda dengizlarda yangi kuchlar paydo bo'ldi. Ular Portugallar va ispanlardan shunisi bilan farq qilar ediki, yanada texnologik takomillashgan, yangi erlarni faqat egallashga emas balki, to'liq o'zlashtirishga intilar edilar. Natijada Gollandiyada tuzilgan Ost-Indiya (SHarqiy Hindiston) savdo kompaniyasi Janubiy Afrika qirg'oqlari va Zond orllarini egallab oldi. Ular portugallardan farqli ravishda diplomatiya yo'lini tutdilar va svdo-sotiq orqali Osiyo davlatlari hududiga kirib bordilar. Angliya savdogarlari Hindiston yarim oroliga ko'z tikdilar, ular portugallar singari alohida koloniyalar tashkil qilmasdan mamlakat ichkarisiga savdo yo'li bilan kirib bordilar va uni egalladilar. Hind okeani Yevropa davlatlari uchun bir vaqtlar O'rta Er dengiziga o'xshab raqobat maydoniga aylandi. Bu kurashda inglizlar g'olib chiqdilar va bir necha asrlar davomida Hind okeanida savdo yo'llarini to'liq nazorat qildilar, shuningdek Hindiston mustamlakasiga ega bo'ldilar.

Yevropaliklarning dengiz yo'li orqali Osiyo mamlakatlariga kirib borishi va savdo-sotiqni o'z qo'lariga olishi Osiyodagi siyosiy va ijtimoiy vaziyatni butunlay boshqacha holga olib keldi. Buyuk Ipak yo'lining faoliyati o'z ahamiyatini yo'qota bordi, qit'a ichkarisidagi Markaziy Osiyo davlatlari dunyodagi siyosiy maqomlarini yo'qotdilar va dunyodan uzilib qoldilar. Hindiston mustamlakaga aylandi, Xitoy iqtisodiy qaramlikka majbur bo'ldi, YAponiya o'zini-o'zi yopiq hududga aylantirdi. O'z siyosiy mavqeini saqlab qolgan Usmoniylar imperiyasi O'rta Er dengizi bo'yidagi SHarqiy Yevropa davlatlari va YAQin sharqda hukmronlik qilar edi. Osiyo va Amerikada mustamlakalarga ega bo'lgan Yevropa davlatlarida juda katta boylik to'plana boshladi. Iqtisodiyot yuqori darajada rivojlandi, bozor munosabatlari shakllana boshladi. Fan kashfiyotlaridan unumli foydalan oladigan Yevropaliklar dunyodagi eng ilg'or millatlarga aylandilar. Ammo bu faqat texnologik taraqqiyot bo'lib, ularning mustamlakalarda amalga oshirgan ishlari boshqa hududlarni inqirozga tushirib qo'ya boshladi. Ko'pgina xalqlar jismoniy yo'q qilindi, qashshoqlikka mahkum etildi. Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi Yevropaga iqtisodiy boylik olib kelgan bo'lsa Osiyo va Afrikaga har tomonlama inqiroz olib keldi.

XULOSA

Buyuk geografik kashfiyotlar geografiya fanining rivojlanishi bilan birga insoniyat tarixida alohida o‘rin egallaydi. Hindistonga dengiz yo‘lining ochilishi o‘zining alohida jihatlari va ahamiyati bilan ajralib turadi. Bu alohidalik bir qancha xususiyatlar bilan ifodalanadi:

- ✓ Hindistonga dengiz yo‘lining ochilishi Yevropa va Osiyo qit‘asi o‘rtasidagi aloqaning yangi yo‘nalishini yaratdi;
- ✓ Afrika qit‘asi va uning aholisiga nisbatan alohida munosabat shakllandi.
- ✓ Yevropa va Osiyo tsivilizatsiyalarining o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirdi va shu bilan birga Yevropa madaniyatining keng yoyilishiga sabab bo‘ldi;
- ✓ Osiyo qit‘asini Yevropa davlatlariga amalda qaram qilib qo‘ydi.

SHu jihatlarni hisobga olganda bu kashfiyotning natijalari dunyo xalqlari taqdiriga alohida ta‘sir ko‘rsatganligi ma‘lum bo‘ladi.

Bundan tashqari Hindistonga dengiz yo‘lining qidirilishi geografik kashfiyotlarning bosh maqsadi bo‘lganligi Buyuk geografik kashfiyotlar davri Hindistonga dengiz yo‘lining qidirilishi tufayli boshlangan degan xulosaga olib keladi. Aynan shu xulosa bu yo‘lda qanday geografik bilimlar orttirilganligi va ayni kashfiyotning geografiya faniga ko‘rsatgan ta‘sirini tahlil qilishga undaydi. Hindistonga dengiz yo‘lining qidirilishi va ochilishi natijasida geografiya faniga bo‘lgan qiziqish ortdi, natijada turli mamakatlarda kartografik, tabiiy, dengizchilik ilmlarini o‘rganish avj oldi. Ma‘lumki, Hindistonga dengiz yo‘lining ochilishida asosiy tashabbuskor bo‘lgan portugal shahzodasi Enrike “Dengizchi” taxtga o‘tirgan vaqtidan atrofiga kartograflar, dengizchilar va kemasozlarni to‘plagan, uning eng

yaqin odamlari sayohatchilar edi. SHuningdek, Buyuk geografik kashfiyotlar davrida rassomlar geografik kartalar chizish bilan mashhur bo'lar edilar.

Hindistonga dengiz yo'lining ochilishining geografik ahamiyati quyidagilardan iborat:

- ❖ Afrika materigining tabiiy sharoiti va qirg'oq chiziqlari haqida geografik bilimlarning to'planishi;
- ❖ Atlantika va Hind okeani tabiiy sharoiti, xususiyatlari haqidagi bilimlar;
- ❖ Afrika va Osiyo qit'asiga ta'luqli orollarning o'rganilishi va o'zlashtirilishi;
- ❖ Arabiston dengizi, Janubiy Osiyo va Hindistonning tabiiy sharoiti haqida geografik bilimlarning to'planishi.

SHular bilan birga ta'kidlash joizki, okeanlarning bir – biriga tutashligi, Amerika qit'asining ochilishi, Tinch okeani, Dunyo bo'ylab aylana sayohatning amalga oshirilishi ham Hindistonga dengiz yo'lining qidrilishi va topilishi bilan bog'liq geografik kashfiyotlardir.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkin, Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi, boshqa barcha Buyuk geografik kashfiyotlar davridagi amalga oshirilgan ishlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan, shuningdek, Afrika, Yevropa va Osiyo qit'alaridagi davlatlar, xalqlar taqdirida alohida ahamiyat kasb etib, hozirgi kundagi dunyoning iqtisodiy-ijtimoiy, etnik, siyosiy va madaniy qiyofasini shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan hodisa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. “YUksak ma’naviyat – yengilmas kuch” T.: O‘zbekiston, 2008 y.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O‘zbekiston, 1999.
4. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish-barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir.T. «O‘zbekiston», 2007.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari.-T.: O‘zbekiston, 2009.
6. И. Магидович. “Очерки по истории географических открытий” М. 1957.
7. Ю. Г. Саушкин. История и методология географической науки. Курс лекции. Москва. МГУ. 1976 г.
8. История географических открытий. Москва. 2001 г.
9. Н. Кузнецов. География населения и хозяйства мира. Москва. «Дрофа». 1998 г.
10. Н. Hasanov. O‘rta Osiyolik geograf-sayyohlar.
11. Великие учёные Средней Азии и Казахстана. Алмата. «Казахстан» 1965 г.
12. Maktab geografiya darsliklari.
13. Maktab tarix darsliklari.
14. O‘zbekiston Milliy Entsiklopediyasi Toshkent 2004 y “O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi” nashriyoti

15. Ю. В. Бромлей. В. А. Анучин и другие. «Земля и человечество»
Глобальные проблемы. Москва «Мысль» 1985.
16. V. P. Maksakovskiy “Jahonning iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi” 10-sinf
darsligi. T. “O‘qituvchi” 1995 y.
17. Asanov G. Sotsial iqtisodiy geografik lug’at. Toshkent, “O‘qituvchi”
1990 y.
18. Internet saytlar: <http://geo.1september.ru>
 1. wgeo. ru
 2. geografiya. ru
 3. world. freeglobus. com
 4. www. Geografiya. Vikipediya. ru